



O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni jonajon yurtimizda keng nishonlanayotgan qutlug' ayom — O'zbek tili bayrami kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Hech shubhasiz, azaliy qadriyatlarimiz gultoji bo'lgan ona tilimiz asrlar sinovidan bezavol o'tib kelayotgan buyuk va bebaho ma'naviy boyligimizdir.

Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasini biz milliy o'zligimizni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili, deb bilamiz. Shu ezuq maqsad yo'lidagi amaliy harakatlarni tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining qo'llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko'zligiga aylangan.

Ayniqsa, keyingi yillarda o'zbek tili nufuzli xalqaro anjumanlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan muntazam yangrab kelayotgan barchamizga g'urur-iftixor bag'ishlash bilan birga, dunyoda ona tilimizni o'rganishga intilayotgan insonlar safini ham tobora kengaytirmoqda.

Hurmattli yurtdoshlar!

Bugungi quvonchli ayyomda jahondagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tilining obro'-e'tibori va nufuzini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz haqida so'z yuritib, kelgusidagi muhim vazifalarimizni belgilab olishimiz tabiiydir.

Bu haqda gapirganda, avvalo, Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti faoliyati zamon talablari asosida tashkil etilib, barcha sohalarida davlat tilida ish yuritish sifatini yaxshilash, xususan, axborot-kommunikatsiya yo'nalishida uni faol qo'llash borasida ijobiy natijalarga erishilayotganini ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, har qanday tili o'rganish va rivojlantirishda, birinchi navbatda, uning nazariy-metodik asoslari katta o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda "O'zbek tilining izohli lug'ati", "Alisher Navoiy qomusi", "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi", "Falsafa" qomusiy lug'ati, "O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi", "Islom ensiklopediyasi", "Ma'naviyat: asosiy tushunchalar lug'ati", "Pedagogika: ensiklopediya", "Tarix atamalar lug'ati", "Adabiyotshunoslik lug'ati", "Yuridik atamalar lug'ati" kabi 40 dan ziyod fundamental kitoblar nashr etilgani bu yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Shular qatorida o'zbek tilining elektron milliy korpusi va dasturiy mahsulotlarning o'zbekcha ilovalarini yaratish, o'zbek tilini Internet tarmog'ida ommalashtirish va munosib o'rin egallashini ta'minlash, davlat tilini o'rgatishga hamda matn tahririga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish bo'yicha ham jiddiy ishlar olib borilayotganini qayd etish zarur.

Mamlakatimizda o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash hajmi hamda ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Hozirgi kunda jami 33 ta oliyog'ahda ushbu mutaxassislik bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida 7 ming nafardan ziyod fan nomzodlari va doktorlari, professor-o'qituvchilar o'zbek tili va adabiyotidan dars bermoqda.

Agar 1992–2012-yillarda, ya'ni 20 yil mobaynida bu ixtisoslik bo'yicha 730 ta ilmiy ish himoya qilingan bo'lsa, so'nggi 10 yilda bu raqam 792 tani tashkil etdi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshidagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'rgatish va malaka oshirish markazida vazirlik, idora va tashkilotlar xodimlari o'zbek adabiy tili me'yorlari va imlo qoidalarini bo'yicha muntazam o'qitilmoqda.

Universitetda tashkil etilgan "O'zbek maktabi"da esa yuzlab xorijlik fuqarolar ona tilimiz va milliy madaniyatimiz asoslarini katta qiziqish bilan o'rganmoqda. Bu borada keyingi yillarda nashr etilgan o'zbekcha-xitoycha, o'zbekcha-inglizcha, o'zbekcha-fransuzcha, o'zbekcha-nemischa, o'zbekcha-arabcha, o'zbekcha-forscha lug'at va so'zlashgichlar muhim rol o'ynamoqda.

Lotin grafikasi asosidagi alifbomizni takomillashtirish ishlari ham davom etmoqda. Ushbu masala yuzasidan xalqimiz, jamoatchiligimiz tomonidan bildirilgan barcha taklif va tavsiyalar jiddiy o'rganilib, muhokamadan o'tganidan so'ng tegishli qonun loyihasini yana bir bor ko'rib chiqib, parlamentga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Aziz do'stlar!

Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat va kullarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog'liq holda ko'ramiz.

Bugungi kunda yurtimizda ta'lim 7 tilda olib borilmoqda. Respublikamizdagi mavjud 1453 ta ommaviy axborot vositasi hamda yuzlab veb-

saytlar orqali qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, turkman, koreys, turk, arab, ingliz, nemis va boshqa tillarda ham materiallar e'lon qilinmoqda.

Biz O'zbekistonni tenglik, do'stlik va bag'rikenglik diyoriga aylantirish maqsadida turli millatga mansub fuqarolarimizning til sohasidagi huquqlarini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni bundan buyon ham izchil davom ettiramiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

O'tgan asr boshlarida ma'rifatparvar jadid bobolarimiz "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya asosida maydonga chiqib, xalqimizni mustamlaka zulmidan xalos qilish, uni zamonaviy ilm-fan, kasb-hunar va madaniyatga oshno etish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirgan edilar.

Ana shunday mushtarak maqsadlar, umummilliy birlik va ahilik bugun biz uchun har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi o'ta keskin va tahlikali zamonda faqatgina shu asosda o'z milliy manfaatlarimizni qat'iy himoya qilishga, jumladan, ona tilimizni asrab-avaylash va boyitish, uni ilm-fan, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, axborot-kommunikatsiya, diplomatiya va boshqa muhim yo'nalishlarda ta'sirchan muloqot vositasiga aylantirib, taraqqiyot sur'atlariga uyg'un holda rivojlantirishga, xalqaro nufuzini munosib darajaga ko'tarishga erisha olamiz.

Binobarin, ulug' shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, "Ona tili — umummillat mulki. Demak, til oldidagi mas'uliyat ham umummilliy bo'lib, bu yolg'iz tilshunoslarning emas, butun millatning ishi" ekanini doimo yodda tutishimiz lozim.

Fursatdan foydalanib, ana shu haqiqatni chuqur anglab, bu yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan, o'zbek tilining haqiqiy fidoyisi va do'sti bo'lgan barcha zahmatkash va jonkuyar insonlarga chin qalbidan minnatdorlik bildiraman.

Qadriy vatandoshlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni 21-oktabr — O'zbek tili bayrami bilan yana bir bor samimiy qutlab, barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik tilayman.

Mana shunday buyuk ma'naviy boylikni yaratgan xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

21-OKTABR — O‘ZBEK TILI BAYRAMI KUNI

O‘ZBEK TILI – MILLAT BIRLIGI,
MILLIY O‘ZLIGIMIZ TIMSOLI

“O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida
21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasini, Oliy Majlis Senati, Qonunchilik palatasi vakillari, turli idora va tashkilotlar, vazirliklarning mutasaddilari, professor-o'qituvchilar, olimlar, yozuvchi va shoirlar, ma'naviyat targ'ibotchilari, talaba-yoshlar ishtirok etdi.

Ishtirokchilar dastlab saroy foyesida tashkil etilgan ona tilimizning nufuzi, o'zbek tilining mavqeyini yuksaltirish borasida olib borilayotgan ishlarni namoyish etuvchi ko'rgazma bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 21-oktabr — O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigini Prezident maslahatchisi — spichrayter Xayriddin Sultonov o'qib eshittirdi.

Ta'kidlanganidek, ona tilimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotidek nufuzli tuzilma minbaridan yangrashi o'zbek tilining dunyo miqyosidagi obro'si va nufuzining tobora yuksalishida, jonajon tilimizni o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishida asosiy omil bo'lmoqda.

Darhaqiqat, ona tilimiz bizning borligimiz, millat, davlat, yagona xalq sifatidagi birligimizning o'ziga xos ko'zgidir. Mamlakat hayotidagi yangilanish jarayonlari ona tilimiz rivojiga qaratilayotgan ulkan e'tibor va g'amxo'rlikda ham o'zining yaqqol ifodasini topmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan ona tilimiz rivojiga doir milliy qonunchiligimiz yanada takomillashdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA BMT

DUNYO E‘TIBORI
YANA OROL MUAMMOSIGA
QARATILDI

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqini gazetadan takror o'qib, uqib jahon minbaridan turib aytilgan muammolarning yechimi xalqimiz uchun naqadar muhim ekanini yana bir karra teran his qildim. Negaki, bugungi global rivojlanish davrida og'izbirchilikni saqlash, inson qadri va manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish va unga amal qilish, millat, din va tilni saqlash tinchlik va totuvlik garovidir.



Davlatimiz rahbari o'z nutqida, ayniqsa, Orol muammosiga keng o'rin berdi. "Keyingi 30 yilda muntazamida havo harorati bir yarim gradusga ko'tarildi. Bu — dunyodagi o'rtacha isishdan ikki karra ko'pdir. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo'qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin yigirma yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin.

Jon boshiga suv bilan ta'minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda", deya ta'kidlar ekan, bu Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va xalqning yashash sharoitlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytib, dunyo hamjamiyati va qo'shni davlatlarni xavfdan ogohlantirdi.

Davomi 2-betda

MA'NAVIYAT SARCHASHMASI

Naroiy
TILINING QUDRATI

2020-yil kuz faslining ilk oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi chaqirildi. Dunyo miqyosida vaziyat tobora keskinlashib borayotgani tufayli bu nufuzli tashkilotning xalqaro anjumani onlayn tarzda o'tkazilib, unda Prezidentimiz BMT tarixida ilk marotaba o'zbek tilida nutq so'zldi. Bu olamshumul voqea millatimiz qalbini cheksiz quvonch va faxr-u iftixor tuyg'ulariga to'ldirib, o'z-gacha bir g'urur, o'z-gacha bir surur baxsh etganini tasavvur qilish qiyin bo'lmasa kerak.

Davomi 6-betda

YO‘LSOZLIK

IQTISODIYOT “ARTERIYASI”

Ibtidoiy jamoa tuzumidan ijtimoiylashuvga o'tgandan boshlab dunyo ne-ne buyuk jahongirlar, shoh va sarkardalar, ulug' saltanatlar, qudratli davlat va imperiyalarni ko'rmadi deysiz?! Ayrim tarixchi va iqtisodchi mutaxassislar fikricha, qadimda yirik saltanatlar iqtisodiy tanazzuliga asosan, urushlar, ba'zilariga esa ulkan bunyodkorlik ishlari sabab bo'lgan.

Birinchi omil, shubhasiz, asoslidir. Binobarin, tarixdan ma'lumki, davlatlar o'rtasidagi urushlar aksariyat hollarda uzoq vaqt davom etishi va bir necha yuz minglab askar ishtirok etgani sababli ham iqtisodiy jihatdan har ikki tomonning tinksini quritgan.

Bunyodkorlik masalasi esa bir oz bahsli. Chunki o'sha davr nuqtayi nazaridan bu haqiqat, qurilishga sarflangan katta miq-

dordagi oltin-u kumushlar davlat xazinasini bo'shab qolishiga sabab bo'lgan. Boshqa tomondan, o'sha pul evaziga barpo etilgan masjid madrasalar, ilm maskanlaridan dunyo ilm-fan tamadduniga katta hissa qo'shgan buyuk allomalar, olimlar yetishib chiqqanki, uning iqtisodiy samarasi bebahodir.

Davomi 4-betda

NUQTAYI NAZAR

TA'LIM SIFATI VA
IJRO INTIZOMI

IKKISINI BIRLASHTIRIB
TURADIGAN JIHAT NIMADA?

Ta'lim sifatini oshirish ko'p jihatdan ijro intizomiga bog'liq. Qay ko'z bilan yoki qanday qarich bilan o'chamang, har qanday mas'uliyatsizlik zamirida ijro intizomi buzilishi yotadi va u, albatta, o'qitish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ijro intizomini ta'minlash va mustahkamlash har bir rahbar xodimning birinchi navbatdagi muhim vazifasidir.

Davomi 5-betda

OBOD MANZILLAR

JIZZAXNING TASHRIF QO'G'UZIGA AYLANAYOTGAN MASKAN

Qurilish va bunyodkorlik ishlariga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida nafaqat Jizzax shahri, balki viloyatning boshqa shahar qishloqlarining me'moriy qiyofasi ham tubdan yangilanib, go'zal va obod manzillarga aylanmoqda. Yangidan-yangi muhtasham va zamonaviy turar joylar, ma'muriy va xizmat ko'rsatish binolari, ishlab chiqarish korxonalar, dam olish maskanlari bunyod etilmoqda. Bu, o'z navbatida, odamlarning hayotga, ertangi kunga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Toshkent — Termiz avtomagistral yo'lining Sharof Rashidov tumanidagi Oqto'sh ota mahallasidan o'tadigan qismi yozasida "Yangi O'zbekiston" massivi bunyod etilayotir. Mazkur joy yaqinlashga dasht edi. Bugun esa osmon'par binolarga ega zamonaviy shaharcha bo'y ko'rsatyapti. Tez orada bu manzil viloyatning eng gavjum va chiroyli manzillaridan biriga aylanadi.

41,3 gektarda barpo etilayotgan massivda 2022-2026-yillarda jami 3040 ta xonadonli 64 ta, shundan 8 ta 16 qavatli, 56 ta 9 qavatli uy-joy bo'ladi. Mazkur loyiha doirasida joriy yilda 1120 ta xonadonli 14 ta uy-joy qurilishi belgilangan.

Barcha binolar innovatsion texnologiya, energotejamkor materiallar asosida bunyod etilmoqda. Binolarning tashqi devoriga bazalt plitalar yopilib, tomiga quyosh panellari va quyosh suv isitish qurilmalari o'rnatilmoqda. Bu ularni uzluksiz elektr energiyasi va issiq suv bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Barcha binolarda elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suv hamda kanalizatsiya tarmoqlari kabi kommunal xizmatlar bilan bog'liq masalalar hal etilgan.

Jumladan, 8,3 kilometr elektr energiyasi, 6,4 kilometr tabiiy gaz, 5 kilometr

ichimlik suv, 7,7 kilometr oqova suv tarmog'i tortilgan. Shuningdek, 3,7 kilometr yo'l quriladi.

— Ayni paytda massivda 24 ta qurilish kompaniyasining quruvchilari tun-u kun mehnat qilyapti, — deydi Jizzax viloyati

Qurilish bosh boshqarmasi boshlig'i vazifasini bajaruvchi Bobir Mamatov. — Massivda 1650 o'rinni maktab, 300 o'rinni davlat maktabgacha ta'lim muassasasi, 250 qatnovga mo'ljallangan oilaviy poliklinika, sport maydonchalari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, 50 gektarli Yangi O'zbekiston bog'i kabi 30 ta obyekt barpo etiladi. Jizzax shahrini ushbu massiv bilan bog'lovchi yangi 4 kilometrli asosiy yo'l va yo'l o'tkazgich qurilishi ham jadallik bilan davom etmoqda. Ushbu yo'l foydalanishga topshirilgach, shaharning Islom Karimov ko'chasi to'g'ridan-to'g'ri M-39 Toshkent — Termiz

avtomobil yo'lga ulanadi. Qurilayotgan uylarning mustahkamligi, zilzilabardoshligi mutaxassislar tomonidan 7 balli sun'iy zilzila yaratish orqali sinovdan o'tkazildi. Fuqarolarimiz eng yuqori qavatda ham xotirjam yashashlari mumkin.

80 oilaga mo'ljallangan 16 qavatli ko'p xonali uylarning dastlabkisi foydalanishga topshirishga tayyor. Har bir xonadon did bilan pardozlangan, barcha kommunikatsiya tarmoqlari to'liq o'rnatilgan. Qolgan 16 qavatli 3 ta, 9 qavatli 17 ta uy-joyda ham qurilish ishlari jadal davom etmoqda.

"Yangi O'zbekiston" massivida barpo etilayotgan uylar markazlashgan holda ishtiladi. Turkiya texnologiyasi asosida yaratilgan qozonxonona ko'mirda ishlaydi. U tejamkor va havoni ifloslantirish darajasi o'ta past.

— Mamlakatimizda inson qadriga e'tibor mana shu qurilishlar misolida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda, — deydi mehnat faxriysi Imomqul Berdiyev. — "Yangi O'zbekiston" massividagi uylarga kirib ko'rdim. Shinam, barcha sharoitlarga ega. Bu yerlarda yashaydigan insonlarga havas qildim. Bolalar bog'chasi, maktab, oilaviy poliklinika loyihalari bilan tanishdim. Albatta, ko'pchilik mana shunday uy-joylarda, yaxshi sharoitlarda yashashga intiladi. Davlatimiz tomonidan uy-joyga muhtoj, sharoiti og'ir fuqarolarga 32 million so'mdan subsidiya berilmoqda.

Massivda xitoylik investorlar tomonidan innovatsion texnopark va boshqa ishlab chiqarish obyektlari ham qurilmoqda. Bu hudud aholisini ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Jizzaxda bunyod etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivi tez orada viloyatning tashrif qog'ozlaridan biriga aylanishi shubhasiz.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'ZBEKISTON QAHRAMONI JONSAID TURDIYEV



Mamlakatimiz tog'-kon sanoati og'ir judolikka uchradi.

"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining "Qolmaqir" konida ko'p yillar fidokorona xizmat qilgan mohir ekskavator mashinisti, mehnat faxriysi, O'zbekiston Qahramoni Jonsaid Turdiyev shu yil 20-oktabrda 69 yoshida vafot etdi.

J.Turdiyev 1954-yil 20-iyun kuni Toshkent viloyatining Bo'ka tumanida tug'ildi. O'rta maktabni tugatib, harbiy xizmatni o'tagach, Toshkent viloyati, Olmaliq shahridagi 80-avtokorxonada haydovchi bo'lib ish boshladi.

1977-yildan mehnat faoliyatini Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tizimida davom ettirib, qariyb o'ttiz yil mobaynida

"Qolmaqir" konida samarali xizmat qildi, ko'plab shogirdlar tayyorlab, mamlakatimizning tog'-kon sanoati rivojiga katta hissa qo'shdi.

O'z kasbining haqiqiy jonkuyari bo'lgan J.Turdiyev bilim va tajribasi, mehnatsevarlik, mardlik va matonat, jonajon Vatanimizga muhabbat singari yuksak insoniy fazilatlar bilan nafaqat jamoasi, balki ko'p millatli xalqimizning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Keyingi yillarda jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etib, Olmaliq shahar "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, faol targ'ibotchi sifatida hududda islohotlarni amalga oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashda jonbozlik ko'rsatdi.

J.Turdiyevning davlatimiz va xalqimiz oldidagi xizmatlari yuksak e'tirof etilib, u 1998-yilda "O'zbekiston Qahramoni" oliy unvoni hamda "Oltin yulduz" medali bilan mukofotlangan edi.

Mamlakatimiz kon-metallurgiya sohasining taniqli vakili, samimiy va kamtarin inson Jonsaid Turdiyevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

SH. MIRZIYOYEV, T. NORBOYEVA, N. ISMOILOV, A. ARIPOV, Z. MIRZAYEV, A. XURSANOV

21-OKTABR – O'ZBEK TILI BAYRAMI KUNI



O'ZBEK TILI – MILLAT BIRLIGI, MILLIY O'ZLIGIMIZ TIMSOLI

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tili rivojlantirish jamg'armasi samarali faoliyat olib bormoqda. Mazkur tuzilma ona tilimizni keng targ'ib etish, uni o'rganish, o'zbek tili taraqqiyoti bilan bog'liq barcha ishlarni samarali yo'lga qo'yishga oid turli loyihalarni, kitob va lug'atlar nashri, til targ'iboti bo'yicha jonbozlik ko'rsatayotgan ustozlarni rag'batlantirish yuzasidan tizimli ishlarni bajarmoqda. Barcha vazirlik va idoralar, tashkilotlarda ish yuritish jarayoni to'liq ona tilimizda olib borilmoqda.

Mamlakatimizdagi yetakchi ilmiy muassasalar, markazlarda, shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida o'zbek tili na'inki mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida targ'ib etish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Eng asosiy, 21-oktabr nafaqat ona tili va adabiyoti muallimlari yoki o'zbek tilshunosligi olimlari, balki butun xalqimiz yakkidligi, ezgu ma'rifiy intilishlarining ko'zligiga aylandi.

— Mana, bir necha yildirki, mamlakatimizda 21-oktabr juda xalqona tarzda, haqiqiy bayram sifatida nishonlanmoqda, — dedi O'zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir. — Ona tilimizni asrab-avaylash har bir fuqaroning burchi ekanini odamlar dildan anglamoqda. Davlatimiz rahbarining bayram munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida bu boradagi mas'uliyatli vazifalar mujassamdir.

— Ushbu sana keng miqyosda, til va ma'naviyat, adabiyot, kitobxonlik bayrami sifatida nishonlanayotgani quvonarli, —

dedi poytaxtimizdagi 274-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Lola Turdiqulova. — Bu sana ona tilimizni asrash yo'lida barchamiz birdek mas'ul ekanimizni anglatadi. Prezidentimizning bayram munosabati bilan yo'llagan tabrigida ham bu boradagi vazifalar aniq belgilab berilgan. Zero, har birimizning o'zimizga, o'zligimizga bo'lgan hurmatimiz tilga bo'lgan munosabatimiz bilan belgilanadi.

Tantanalari tadbirida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoir Eshqobil Shukur ona tilimizga bag'ishlangan yangi she'ri o'qib berdi. "O'zbek til jilolari" nomli videolavha orqali ona tilimiz rivoji yo'lida mehnat qilgan ustoz yozuvchi va shoirlar, san'at darg'alarning ijodidan namunalars aks ettirildi. Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillari o'zbek tilining o'z hayoti va taqdirida, yutuqlarga erishishdagi ahamiyati xususida so'zladi. Ulkan monitor orqali turli mamlakatlarda o'zbek tili tadqiq etayotgan olimlar, tilshunos mutaxassislar ona tilimizga bo'lgan hurmat va ehtiromli munosabatini onlayn tarzda bildirdi.

Konsertda ona tilimizning jozibasini ko'rsatib beruvchi she'riar, dilbar kuy-qo'shiqlar ijro etildi. Chindan ham bu bayram milliyligimiz, o'zligimiz, yangilanayotgan O'zbekistonimizning ma'naviy qiyofasi sifatida hayotimizdan mustahkam o'rin olgan ayyomdir.

Tantanalari tadbirida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov ishtirok etdi.

Nazokat USMONOVA,
O'za muxbiri

TOMORQACHILIK

HAM ISHLI BO'LDI, HAM DAROMADLI

Bugun Surxondaryo viloyatida bo'lsangiz, quvonarli bir holatga duch kelasiz. Avvalgi yillar ayni kuzda voha bozorlarida bir kilogramm pomidorning bahosi 10 ming so'mga chiqardi, bodring, oshqovog, sabzi va karamning bahosi ham shu atrofda bo'lgan. Bu yil esa pomidorning 3-4 kilogrammi shu narxda. Bozor rastalari boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga to'lgan, narxi ham ancha arzon. To'kinlik va mo'l-ko'chilikning bosh omili vohada takroriy ekinlar ekishga e'tibor kuchaygani hamda ishlayman, degan talabgorlarga yer ajratilgani bilan izohlanadi, albatta.

Aytish kerakki, surxondaryolik kattayu kichik mirishkor dehqonlar unumdor yerning har qarichidan samarali foydalanish yo'lida bor tajriba va mahoratini ishga solyapti. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, eksportbop mahsulot yetishtirishni ko'paytirish maqsadida g'alladan bo'shagan dalalarning 90 ming gektarida takroriy ekinlar yetishtirildi. Yer, birinchi navbatda, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila vakillariga, ishsiz yoshlar va xotin-qizlarga ajratildi. "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftari" da turganlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning ham ishli, ham daromadli bo'lishiga amaliy ko'maklashish maqsadida o'rta 25 sotixgacha, jami qariyb 10 ming gektar yer bo'lib berildi. Bu toifadagi fuqarolar ovora va sarson bo'lmaguncha uchin yashash manzillariga yaqin, suv ta'minoti qulay hamda unumdor yer ajratilib, fermer xo'jaliklari yerni shudgorlash, egat ochish yumushlarini bajardi, homiylik asosida urug'lik va mineral o'g'itlar bilan ta'minlandi.

Muzrabotda bo'lgan tuman yoshlar ishlari agentligi bo'lmi bosh mutaxassisi Jahongir Izzatullayev quyidagi ma'lumotlarni taqdim etdi: turli hududlardagi g'alladan bo'shagan 304 gektar unumdor yer 870 nafar yoshga o'rta 35 sotixdan taqsimlangan. Bu maydonlarda yoshlar o'z imkoniyatlarini va qarashlaridan kelib chiqib, ekin turini o'stirishdi. Kimdir mosh, boshqasi don uchun makkajo'xori, kimdir tariq, yana birovi xo'raki lavlagi ekdi. Xullas, ajratilgan yerning 150 gektariga moyli ekinlar, 100 gektariga ko'kat, pomidor, bodring, sabzi, xo'raki lavlagi, 54 gektarga poliz ekinlari ekilgan.

Masalan, tumanidagi Yakkaterak mahallasida yashovchi Jasur Murodov turmush o'rtog'i Shohista Safarova ikkisiga berilgan 70 sotix yerga tarvuz ekib, 40 million so'm daromad oldi.

— Pul topaman, ro'zg'orimni tiklay-

man, deb ancha vaqt xorij davlatlarida saronu sargardon yurdim. Lekin tuzukroq daromadga ega bo'lmadim, — deydi 29 yoshli Jasur Murodov. — Qishloqimizdagi fermerning dalasidan ishsiz yoshlarga yer ajratilishini eshitib, turmush o'rtog'im ikkimiz ariza berdik. Ko'z tegmasin, daromadimizdan nolimaymiz. Uch oyda necha yildan beri topolmagan mablag'ni topganimdan xursandman. Muhimi, dehqonchilik sirlarini yaxshi bilib oldim. Endi "E-auktsion" tanlovi orqali 30 yilga yerni ijaraga olib, dehqonchilik qilmoqchiman.

Muzrabot tumanidagi Alpomish mahallasi hududidan 30 nafar yoshga 25-30 sotixdan yer ajratilgan ekan. Tengdoshlar o'zaro maslahatlashib, yeryong'oq ekishibdi. Erta-inda hisolini yig'ishtirib olishga tayyorgorlik ko'rmoqda. Mahsulotlariga xaridor ham tayin emish. Qishloqdagi tadbirkorlar oldindan bo'nak puli ham tashlab ketibdi. Yer olib, dehqonchilik qilayotganlardan biri Oybek Turpov bilan suhbatlashdik.

— 50 sotix yerga tavakkal qilib makkajo'xori ekkandim, — deydi u. — 2,1 tonna makkajo'xori donini sitib oldik. Hozir bozorda bir kilogramm makkajo'xori doni 8 ming so'm. Ko'tara savdogu kilogrammini 6 ming so'mdan topshirdim. Yana deng, besh telejka makkajo'xori poyasini chorvasi bor fuqarolar o'rib-yig'ib olib ketdi. Qisqasi, 15 million so'm daromad qildim. Jarqo'rg'on tumanidagi Oqtepa mahallasining yoshi ulug'lari ham, yoshlari ham yerni qadrlaydigan va bir yilda uch martagacha hosil undiradigan usta dehqonlar. Tuman yoshlar ishlari agentligi mutaxassisi Alisher Choroyev bir konturdagi dalaga bir guruh yoshlar to'liq yeryong'oq ekishgani va har yili yoshu qari bu ekinlardan katta daromad qilayotganliklari to'g'ri hikoya qildi. Hamrohimizning aytishicha, yozda tumaning bir necha hududidagi dalalardan kam ta'minlangan

oilalar ishsiz farzandlari hamda "Yoshlar daftari" ro'yaxidagi 1685 nafar o'g'il-qizga uylariga yaqin, suv muammosi bo'lmagan g'alladan bo'shagan 258 gektar yer o'rta 15 sotixdan bo'lib berilgan. Bu dalalarda yoshlar ko'proq yeryong'oq parvarishlabdi.

— Do'stim bilan 30 sotix yerda yeryong'oq o'stirdik, — deydi 23 yoshli, ham gapga, ham ishga chechan Ilhom Toshtemirov. — Yeryong'oqning xaridori tayin, keyin bir necha yildan buyon suv ish bilan shug'ullanib kelayotganim uchun qanday qilib mo'l hosil yetishtirish sirlarini bilamiz. Mabodo oyog tirab sotmoqchi bo'lsangiz, may oyigacha ham mog'orlamay turaveradi. Yeryong'oq donining o'zidan 30 million so'm daromad qilamiz, deb cho'tlab turibmiz. Tag'in, yeryong'oqning poyasi qo'shimcha daromad — toylangan bir bog'lami 35 ming so'mdan sotilayapti.

Viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasidan taqdim etilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, g'alla va boshqa etraki ekinlardan bo'shagan yerlarning 1855 gektari ehtiyojmand oilalar farzandlari hamda "Yoshlar daftari" ro'yaxidagi turganlarga ajratilgan bo'lib, bu maydonlarning 835 gektariga pomidor, bodring, karam, xo'raki lavlagi singari sabzavotlar, 371 gektarga yeryong'oq va mosh, yana shuncha yerga boshqa ziroat, 278 gektarga tariq ekilgan. Bu dalalardan jami 32 ming tonnadan ortiq turfa mahsulot yig'ib olish kutilayapti. Boshqacha aytganda, yoshlarga berilgan yerdan olinajak 32 ming tonna qishloq xo'jalik mahsulotlarining daromadi ishchan yoshlarning turmushini farovonlashtirishga sarmona.

G'alladan bo'shagan dalalar faqat yoshlar va daftarlarda ro'yaxtda turganlariga emas, aholiga ham taqsimlangan. Fermer xo'jaliklari ham 30-40 gektarlab maydonda turli xil ekinlar parvarishlayotir. Kuz va qish oylari bozorlar rastala-

rini xilma-xil sabzavot mahsulotlari bilan to'ldirish hamda narxini arzonlashtirish niyatida voha dehqonlari 9 ming gektar maydonda sabzi, bir necha navdagi karam, har xil ko'katlar, turp, sholg'om o'stirmoqda.

Mosh, no'xat va boshqa dukkakli ekinlar bir-ikki sug'orish hisobiga pishib yetiladi va yig'ib olingan hosil irimaydi, chirimaydi, eksportbop. Ayni suv taqchil hozirgi sharoitda viloyat dehqonlari kam suv bilan mo'l hosil yetishtirish imkoniyati beruvchi moshni 36,2 ming gektar maydonda parvarishladi. Aholining mosh yetishtirishga qiziqishi kuchaygani bejiz emas. Chunki Sho'ri, Qumqo'rg'on tumanlari dehqonlari har yili ikkinchi ekin sifatida ekib, mo'may daromadga ega bo'layapti.

Tabiiyki, sho'rchilik va qumqo'rg'onlik dehqonlarning mosh yetishtirib, daromadidan uy qurib, mashina sotib olayotganiga boshqalar havas qilyapti. Shuning uchun qo'shni tumanlarning fuqarolari ham mosh yetishtirishga jiddiy kirishgan.

Yeryong'oq yetishtirgan dehqonga ham, qayta ishlovchiga ham serdaromad ekin. Xususan, eksportbopligi bilan barchaga manzur. Yeryong'oq yetishtiruvchilar faqat doniniga emas, poyasini ham chorvador xo'jaliklar va aholiga sotib, yaxshigina sarmoyaga ega bo'layotir. Shundanmi, hozir vohaning barcha tumanlari aholisi 18 ming gektar dalada parvarishlangan yeryong'oq hosilini yig'ishtirmoqda.

No'an'anaviy ziroatlardan biri tariq ekishga ham qiziquvchilar ko'paygani bor gap. Tariqni parrandalarga don sifatida berib, maxsus tegirmondan maydalab omuxta yem o'rinda ham foydalanishmoqda. Ayniqsa, poyasi qoramolga ham, qo'y-echkilarga ham to'yimli oziq. Yaqin-yaqingacha tariq faqat Muzrabot tumanining Qo'ng'iro't hududidagi dalalarda o'stiriladi. Bu mavsum vohaning barcha xo'jaliklarida jami 11,7 ming gektar maydonda yetishtirildi.

Takroriy ekin ekan fuqarolarning hammasi ham faqat yuqori daromad olishni ko'zlamay, chorvachilikni rivojlantirish, elning o'shish, sut, tuxumga bo'lgan ehtiyojini qondirishni o'ylagan aniq. Shu maqsadda 23,3 ming gektar maydonda xashaki lavlagi, silos uchun makkajo'xori va boshqa turdagi oziqabop ziroatlar o'stirilyapti.

Yana viloyat qishloq xo'jalik boshqarmasidan berilgan ma'lumotlar tahli-liga qaytamiz: takroriy ekinlar yetishtirish uchun ajratilgan yerlardan 240,7 ming tonna sabzavot, 31 ming tonna poliz ekinlari, 69,4 ming tonna dukkakli, 23,6 ming tonna tariq va boshqa turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlash rejalashtirilgan. Mahsulotning 60,4 ming tonnasi eksportga jo'natiladi. Xulosa shuki, nafaqat dehqon qo'shimcha sarmoyaga ega bo'ladi, shu bilan birga, viloyat xazinasi ham ko'payadi.

Usmonali NORMATOV,
jurnalist

O'ZBEKISTON VA BMT

DUNYO E'TIBORI YANA OROL MUAMMOSIGA QARATILDI



Kenesboy KARIMOV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

Boshlanishi 1-betda

To'g'ri, aytilgan muammolarning yechimini topish va bartaraf qilish bo'yicha Orol mintaqasida qator ishlar amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari tomonidan ana shu ezgu tamoyilga asoslangan tub islohotlar Qoraqalpog'istonning har bir shahar va tumani, qishloq va ovuli, hatto xonadonlarigacha kirib borishini ta'minlash bosh maqsad qilib qo'yildi. O'tgan yillar davomida Prezidentimizning Qoraqalpog'istonga har bir tashrif beiz ketmadi: katta sarmoyalarga asoslangan tashabbuslar bilan keldi va ularning amalga oshirilishida shaxsan boshqosh bo'ldi. Ovuлма-ovul, uyma-uy yurib,

sasalari bunyod etildi. Stadion hamda bolalar va o'smirlar sport maktabi binosi rekonstruksiya qilindi. Madaniy dam olish maskani, 2 ming tomoshabinga mo'ljallangan amfiteatr, Yoshlar markazi binolari ham shular jumlasidan. Eski aeroport ta'mirlanib, qayta ishga tushirildi. Davlatimiz rahbari topshirig'i bilan 2019-yilda Ochiq osmon ostidagi kemalar muzeyi majmuasida keng ko'lamil obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Majmua hududida sayyohlarga xizmat ko'rsatuvchi "Mo'ynoq tur" MCHJga qarashli Milliy o'tovlar kempingi, ovqatlanish va dam olish o'rinlari tashkil etilgan. Hududda Orol dengizi tarixi muzeyi faoliyat yuritmoqda.

Bugun Mo'ynoq shahriga kelgan mehmon uning yaqin o'tmishda qanday ko'rinishda bo'lganini hatto tasavvur ham qilolmaydi. Zamonaviy bozor, aeroport, ikki tomonga yo'l olgan guzarlar, qator ko'chalar, oppoq rangli uylar va ma'muriy, ma'rifiy imoratlar ko'zni quvontiradi.

Orol dengizi qirg'og'idagi loydan ohak, qumdan oyna, chig'anoqlardan sovun ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda, daryo suvi keladigan joylarda qizilmiya, dengizning sho'r suvidan artemiya olish, osh tuzi, tomat pastasini tayyorlash seklari ochilyapti.

"Mustaqillikning 27 yilligi" shaharchasi, "Mo'ynoq akva sanoat" DUKning baliqni qayta ishlash konserva zavodi, "Fumei Group" MCHJ shaklidagi qo'shma korxonaning qamishdan DSP ishlab chiqarish zavodlari va boshqalar ana shu nuriy tomlarga qo'yilayotgan tamal toshlaridir.

Prezidentimiz joriy yilning mart oyida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi davomida sanoatni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni

Ikkinchi tashabbus bo'yicha Qoraqalpog'istondagi 47 ming uy-joy va ko'chmas mulklarga kadastr qilib berilyapti. Natijada aholida ipoteka olish, tomoqasida dehqonchilik qilish uchun kredit, subsidiya olish, yashayotgan boshpanasini farzandlariga meros qoldirish imkoniyati tug'ildi.

Uchinchi tashabbus bo'yicha esa Qoraqalpog'istonda yiliga 6,5-7 mingta uy-joyga talab borligi hisobga olinib, aholi va yangi oilalar uchun zamonaviy loyiha asosida 4 ming yakka tartibdagi uy-joy qurishga 4 sotixdan yer ajratilib, infratuzilma tizimi ham yaratilyapti. Ya'ni joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 2 barobar ko'p yoki 4 mingta uy-joy quriladi.

Prezidentimizning 2023-yil 28-iyuldagi "Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda jismoniy shaxslar tomonidan qurilgan uy-joylarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida fuqarolarning huquq belgilovchi hujjatlarsiz qurilgan uy-joylari joylashgan yer uchastkasiga ijara huquqi, unda joylashgan bino va inshootlarga mulk huquqi e'tirof etiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri boshchiligidagi hamda tarmoq birlashmalari, tijorat banklari va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlaridan iborat ishchi guruh Qoraqalpog'iston Respublikasining eksport, investitsiyaviy va sanoat salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan navbatdagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha ish olib boryapti. Ana shu maqsadda Mo'ynoq, Qo'ng'iro't, Qonliko', Shumanay va Xo'jayli tumanlaridagi bir qator yirik sanoat korxonalariga tashrif buyurilib, loyiha tashabbuskorlari bilan uchrashuvlar o'tkazildi hamda tadbirkorlarni qiynab kelayotgan masalalar va ishlab chiqarish quvvatlarini yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Prezidentimiz tashabbusiga ko'ra, kelgusi yetti yilda Qoraqalpog'istonda amalga oshiriladigan bir qator rejalar qatorida qoraqalpog'iston mumtoz adabiyotining zabardast vakili Ajiniyoz Qo'shiboy o'g'lining 200 yilligi munosabati bilan ma'naviyat va adabiyot bayramini o'tkazish, Mo'ynoq tumanida Ajiniyoz nomidagi ekopark barpo qilish, Qoraqalpog'istonda agrotexnologiyalar va muhandislik yo'nalishlarida yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari hamda Nukusda raqamli texnologiyalar institutini ochish rejalashtirilgan. Kelgusi yildan boshlab esa Orolga yaqin joylashgan Taxtako'pir, Chimboy, Qorao'zak, Bo'zatov, Shumanay, Qo'ng'iro't tumanlarida faoliyat yuritayotgan tibbiyot sohasi xodimlari ish haqiga 200



oqsoqqalar, tadbirkorlar, yoshlar vakillari bilan muloqot qildi, ularning talab va takliflari tinglab zerikmadi, hammasini inobatga oldi. Buning ortidan xalqimiz hayoti yaxshilandi.

Ushbu davrda Qoraqalpog'istonni kompleks rivojlantirishga qaratilgan 30 dan ziyod farmon va qarorlar qabul qilindi. Natijada hududda tadbirkorlik subyektlari soni 2 barobar ortdi, 4,5 mingdan ortiq investitsiya loyihalari ishga tushirildi.

Orol taqdiriga befarq bo'lsak, bora-bora butun yer kurrasiga uning ofati yetadi. Shuning uchun Prezidentimizning sa'y-harakati va xalqaro ekologik tashkilotlar yordamida Orol dengizi akvatoriyasining janubiy qismida deyarli 1 million 700 ming gektar maydonda hududimizni Orolqum hamlasidan asraydigan yashil makon barpo etilmoqda. Bugunga kelib, o'rmon xo'jaliklari tomonidan juda katta maydonda saksovul, cherkez, kandim o'simliklaridan iborat o'rmonzorlar barpo etilgani qum ko'chishlariga barham bermoqda. Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi tomonidan e'lon qilingan "Har bir oila 5 tadan mevali daraxt o'tqazish" tashabbusi ham o'z natijalarini beryapti.

Davlatimiz rahbari 2018-yil Mo'ynoq tumaniga tashrifi chog'ida Orol fojiasidan eng ko'p zarar ko'rgan hudud aholisining sabr-qanoatlik, mehnatkashlik xislatlarini alohida tilga oldi. Ularni Mo'ynoqni rivojlantirish rejalarini tanishtirdi. Shu asosda bu yerda ko'p qavatli turar joylar, infratuzilma obyektlari barpo qilindi, yo'llar qaytadan asfaltlanib, daraxt ko'chatlari o'tqazildi. Ijtimoiy soha obyektlarini qurish va ta'mirlash, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi.

"Yangi Mo'ynoq" shaharchasida dasturlashni chuqur o'rgatishga ixtisoslashtirilgan innovatsion maktab, bolalar musiqa va san'at maktabi kabi bir qancha ta'lim-tarbiya muas-

“ Prezidentimizning 2023-yil 28-iyuldagi “Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda jismoniy shaxslar tomonidan qurilgan uy-joylarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida fuqarolarning huquq belgilovchi hujjatlarsiz qurilgan uy-joylari joylashgan yer uchastkasiga ijara huquqi, unda joylashgan bino va inshootlarga mulk huquqi e'tirof etiladi.



qisqartirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazganida aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan 3 ta yangi tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus doirasida Qoraqalpog'istondagi 452 mahallaning har biriga to'g'ridan-to'g'ri 500 million so'mdan qo'shimcha mablag' berilishi ko'zda tutildi va mahallalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilinib, unga 250 milliard so'm ajratildi.

foizlik ustama to'lash, Toshkent shahrida mavjud bo'lgan barcha zamonaviy tibbiy xizmatlarni kelgusi yillarda Nukus shahrida ham yo'lga qo'yish singari faxrlanishga arzigulik ishlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida bildirgan taklif hamda tashabbuslari Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

BUGUNING GAPI

DO'STLIK VA ISHONCHGA ASOSLANGAN MUNOSABATLAR

MDH DAVLATLARINI YANA BIR MAYDONDA BIRLASHTIRDI

Gulbahor SAIDG'ANIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati



do'stlikni mustahkamlash barobarida, umumiyqisodiy o'sishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida doim muhim o'rin tutuvchi mamlakatlardan biri bo'lib kelgan. Bu asosan, savdo-iqtisodiy aloqalarda ko'zga tashlangan bo'lsa, oxirgi yillarda kelib, mintaqa davlatlari bilan hamkorlik mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Endi bizni ahil qo'shnihilik munosabatlari ham birlashtirmoqda. Uzoq yillar davomida yopiq turgan chegaralar ochilishi, iqtisodiy, o'zaro savdo, madaniy-ma'rifiy, xullas, barcha sohalaridagi hamkorlik xalqlarimiz o'rtasidagi

ligiga e'tibor qaratadi. Bu borada tegishli shartnoma qoidalarini qayta ko'rib chiqishni taklif etib, bunda davr o'tishi bilan eskirgan va hozirgi kunga moslashtirish zarur bo'lgan jihatlari bo'yicha beshta taklif berdi.

Bular ichida elektron savdoni rivojlantirish, bunday platformalarni kengaytirishga alohida to'xtalib o'tildi. E'tibor qiladigan bo'lsak, agar mana shu taklif amalga oshadigan bo'lsa, mamlakatlarimiz aholisi, tadbirkorlarimiz, kompaniyalar uchun quylayliklar yaratilib, o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalar, raqobat kuchayadi hamda aholi turmushi farovonligi ortishiga hissa qo'shadi, savdo to'siqlari kamayadi.

O'zaro investitsiyalarni rag'batlantirish va loyihalarni ilgari surish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda MDH mamlakatlarning Sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlanmalari forumini o'tkazish tashabbusi ham alohida ahamiyatga ega. Gap shundaki, bugun dunyoda har bir sohaga innovatsiyalar kirib kelar ekan, ular o'zaro tajriba almashinuvisiz mustaqil rivojlanishi qiyin. Shu ma'noda, bu tashabbus to'liq o'zini oqlaydi, deb ayta olamiz.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida gumanitar sohalariga alohida to'xtaldi. 2024-yilda Hamdo'stlikning madaniy poytaxti deb e'lon qilingan Samarqand shahrida MDH madaniyat, san'at va kino haftaligini o'tkazishni taklif qildi. Ushbu tashabbus xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirish, gumanitar soha rivojida alohida ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga asos bo'ladi. Kelgusi yilda MDHning Yoshlar poytaxti maqomini olgan Toshkent shahrida qator tadbirlar o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Ta'lim sohasi va sayyohlik almashinuvisi rivojlantirish yo'nalishlari ham e'tibordan chetda qolmadi, ular bo'yicha muhim takliflar ilgari surildi.



Munosabatlarni nafaqat iqtisodiy manfaatdorlik, balki o'zaro ishonch, do'stlik, yakdillikka asoslanayotganini ko'rishimiz mumkin. Mintaqa davlatlari umumiy muammolarni birgalikda hal etish, barcha masalada bir-birini qo'llab-quvvatlash orqali yanada rivojlanishga intilyapti. Bu jarayonlarda esa O'zbekistonning o'rni va hisssasi tobora mustahkamlanib bormoqda.

Keyingi yillarda O'zbekiston MDH tarmoqlar bo'yicha hamkorligining 24 ta organiga qo'shildi, 65 ta tuzilmasi faoliyatida to'liq ishtirok etmoqda. Ushbu davrda davlatimiz rahbari tomonidan ko'plab muhim yo'nalishlar yuzasidan qariyb 70 ta tashabbus ilgari surildi. Ularning aksariyati Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlardan tomonidan qo'llab-quvvatlanib, amalga tatbiq etilmoqda. Joriy yilning 13-oktabr kuni Bishkek shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ham Prezidentimiz ilgari surgan amaliy taklif va tashabbuslar yetakchi siyosatchilar, ekspertlar tomonidan yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanganiga guvoh bo'ldik.

Aytish joizki, MDH O'zbekiston uchun ustuvor sohalarida amaliy hamkorlik qilishning g'oyat muhim instituti hisoblanadi. Hamdo'stlikka a'zo mamlakatlardan O'zbekistonning doimiy sheriklari, qo'shnilari va

50 dan ortiq tadbir, onlayn majlislar o'tkazilgan. Yil davomida O'zbekiston BMT, YXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasidagi turli tadbirlarda MDH vakili sifatida ishtirok etdi. BMT Bosh Assambleyasining 2020-yil noyabr oyida BMT va MDH o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi rezolyutsiyasi tashab-



busi ilgari surilib, ushbu hujjatning bir ovozdan qabul qilinishi ta'minlandi. Bishkek shahrida o'tgan sammit ham yangi tashabbuslarga boy bo'lganini kuzatdik. Uchrashuv

Asosiysi, Prezidentimiz bildirgan tashabbuslar hayotga faol tatbiq etilib, mintaqa davlatlarining har sohada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda erishilayotgan natijalar, o'sish ko'rsatkichlari buni tasdiqlaydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisi doirasida O'zbekiston Prezidentining do'stlik, yaxshi qo'shnihilik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hisssasi uchun tashkilotning oliy mukofoti — MDH Faxriy nishoni bilan mukofotlanishi ham bu boradagi ishlarining haqiqiy va munosib e'tirofidir.

Zero, O'zbekiston Prezidentining MDH sammitidagi nutqi ko'plab ezgu maqsadlarni ko'zlagani bilan tarixiy ahamiyatga ega. Chunki hozirgi ziddiyatli va murakkab geosiyosiy vaziyat, dunyoning ba'zi mamlakatlari duch kelayotgan keskinliklar fonida MDH mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli va ko'p tomonlama hamkorlik mintaqamiz, xususan, O'zbekiston uchun tinch va barqaror rivojlanishda nihoyatda muhim hisoblanadi. Ilgari surilgan tashabbuslar esa MDH makonida inqirozdan keyingi davrda barqaror rivojlanish uchun a'zo davlatlarning ulkan salohiyatidan to'la foydalanish, sa'y-harakatlarni birlashtirish imkonini beradi.

“ O'zaro investitsiyalarni rag'batlantirish va loyihalarni ilgari surish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda MDH mamlakatlarning Sanoat kooperatsiyasi va innovatsion ishlanmalari forumini o'tkazish tashabbusi ham alohida ahamiyatga ega. Gap shundaki, bugun dunyoda har bir sohaga innovatsiyalar kirib kelar ekan, ular o'zaro tajriba almashinuvisiz mustaqil rivojlanishi qiyin. Shu ma'noda, bu tashabbus to'liq o'zini oqlaydi, deb ayta olamiz.

do'stlikdir. Shu bois, yurtimiz o'zaro munosabatlarda hamisha qat'iy, sobit turishga intiladi, manfaatli hamkorlikni ilgari suradi.

Mamlakatimiz 2020-yilda MDHga raislik qilgan davrini yodga olaylik. O'shanda bu mas'uliyatli vazifa davlatimizning imiji va obro'sini yanada mustahkamlash barobarida, ishonchli xalqaro sherik sifatida yuqori salohiyatini namoyon etgan, MDH maqomini mustahkamlashga ham katta hissa qo'shgan edi.

Raislik davomida COVID-19 pandemiyasi cheklovlariga qaramay,

asosiy natijalarni sarhisob qilish va Hamdo'stlik doirasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning keyingi rejalarini belgilab olish imkonini berdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida har galgidek qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. MDHdek noyob platformani ishga solish muhimligini qayd etib, unga a'zo mamlakatlarning yetakchi tahlil markazlari va ekspertlari konferensiyasini tashkil etish taklifini bildirdi. Shuningdek, yurtimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida to'laqonli erkin savdo hududini shakllantirish muhim-



YO'LSOZLIK

IQTISODIYOT "ARTERIYASI"

yo'nalishlarda harakatlanadi va har birida 4 nafardan odam bor, deb hisoblasak, undan bir kunda 14 mingdan ortiq avtotransportdan 57 mingdan ziyod yo'lovchi foydalanishi ayon bo'ladi. Qisqarayotgan 146 kilometr yo'l uchun sarflanadigan o'rtacha vaqt 1,5 soat, yoqilg'i esa 10 litr deb olsak, kunlik yo'lovchilarning umumiy hisobda 86 ming 400 soat vaqti tejaladi. Shu bilan birga, 144 ming litr benzin iqtisod qilinishi evaziga haydovchilarning 860 million so'mdan ortiq mablag'i yoniga qoladi.

Bu birgina ushbu loyihaning bir kunlik iqtisodiy foydali jihati. Boshqa jihatlari va, umuman, oylik, yillik iqtisodiy samarani hisoblaydigan bo'lsak, raqamlar oddiy kalkulyatorga sig'may qoladi. Ichki yo'llar haqida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin.

Shu bois, keyingi yillarda yo'l qurilishi sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Na-



har qanday mavsumida 5 daraja issiqdan yuqori haroratda beton qoplamali yo'llarni qurish imkoniyati bor. Har qanday asos ustiga yotqizilishi mumkinligi, tungi vaqtda yo'l sirti ko'rinishi yaxshi bo'lishi ham bunday yo'llarning eng afzal jihatlari.

Davlatimiz rahbari shu yil 12-sentabr kuni yo'l xo'jaligi tizimini isloh qilish masalalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda sohada qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda tizimli muammolar ham mavjudligiga e'tibor qaratdi.

Prezidentimiz avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish, ta'mirlash va saqlash borasida asosiy kamchiliklarni keltirib o'tar ekan, "Sifatli yo'l odamlarning kayfiyat va iqtisodiyotimiz "arteriyasi" hisoblanadi. Shu bois, yo'l qurilishiga yangicha yondashuvlarni joriy qilib, sifatini oshirish, sohani raqamlashtirish va xususiy sektorni keng jalb qilish kerak", dedi.

Darhaqiqat, viloyat Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi zimmasida avtomobil yo'llari, ko'priklar va yo'l o'tkazgichlar qurish, saqlash, davlat ahamiyatidagi yo'llarni kuz-qish mavsumida qordan tozalash va ular chetiga ekilgan daraxt hamda ko'chatlarni saqlash vazifalari bor. Bosh boshqarma 2030-yilgacha jami 4 ming 560 kilometr dan ziyod ichki yo'l ta'mirlashni rejalashtirgan.

Ayni kunlarda Namangan shahri tarkibidagi Yangi Namangan tumanining shimoliy aylanma — 4R-117 avtomobil yo'llining 27-29-kilometrliki kapital ta'mirlanayapti. Bungacha yo'ning ushbu qismidagi no-sozlik haydovchi va yo'lovchilarning haqli e'tiroziga sabab bo'layotgan edi. Loyiha nihoyasiga yetgach, hududdagi infratuzilma yaxshilanib, umumiy transport tizimi uchun qulaylik yaratiladi.

Yo'l qoplamasi ta'mirlanadi, bu esa yo'lovchilarning ravon va mustahkam yo'ldan foydalanishiga imkoniyat yaratadi. O'z navbatida, drenaj tizimi yaxshilanadi. Suv to'planishning oldini olish va kuchli yog'ingarchilik paytida yo'lining shikastlanish xavfini kamaytirish uchun yangi lotoklar o'rnatiladi. Yo'l harakati boshqaruvini yaxshilash va haydovchilar xavfsizligini ta'minlash uchun kerakli joylarga nur qaytaruvchi yo'l belgilari o'rnatiladi.

Shuningdek, Davlatobod tumanidagi G'alaba ko'chasida ham yo'llar zamonaviy talablar asosida yangilanib borilyapti. Dastur asosidagi qurilish-ta'mirlash ishlari natijasida bu ko'cha aholi vaqti va mablag'ini tejash bilan birga, hududda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Namanganda umumiy hisobda 14 ming 11 kilometr avtomobil yo'li mavjud, buning 3 ming 377 kilometrini umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llaridir. Shahar va qishloq aholi punktlari ko'chalari esa 10 ming 634 kilometrni tashkil etadi.

Akramjon HAMDAMOV, Namangan viloyati Avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Ushbu holatning bugungi kun bilan farqi shundaki, u paytdagi islohot samarasi o'sha davr sivilizatsiyasi nuqtayi nazaridan uzoq vaqt talab etgan.

Bugungi kunga kelib ikkinchi omilning ahamiyati tamoman aniq bo'ldi. Ya'ni buni yordamkorlik ishlari, xoh u ishlab chiqarish korxonasi yoki ijtimoiy soha obyekti bo'lsin, xoh uy-joy yoki yo'l qurilishi bo'lsin, iqtisodiy jihatdan manfaat keltiradi. Buni dunyo miqyosida, aytaylik, Dubayni turizm va biznes markaziga aylantirish, mamlakatimiz hisobida esa barcha soha va tarmoqlardagi yangilanishlarda ko'rish mumkin.

Birgina yo'lsizlik yo'nalishini olaylik. Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 6 yilda yurtimizda yo'l qurish va ta'mirlashga ajratilayotgan mablag' miqdori 3 karra oshgan. Avtomobil yo'llari qo'mitasi tarkibidagi korxonalar 2 mingdan ziyod maxsus texnika xarid qilgan. Bular orqali 65 ming kilometr yo'l qurilgan va ta'mirlangan.

O'tgan yildan "Mening yo'lim" loyihasi doirasida ichki ko'chalarda aholi takliflari asosida qurilib, ta'mirlanadigan tizim joriy qilindi. Shu yilning o'zida yurtimizdagi 470 ta mahallaning ichki yo'llari uchun 410 milliard

so'm yo'naltirilib, 3 million 600 ming yurtdoshimizning mushkuli oson bo'lgan.

Umuman olganda, 3 mingga yaqin mahalla yo'lga ilk bor asfalt yotqizilib, yana 2 mingta mahalladagi tuproq yo'l shag'al qoplamaga o'tkazilgan.

Yo'l qurilishiga sarflanayotgan mablag' miqdori aniq, lekin uning iqtisodiy samarasi qayerda, deyishingiz mumkin. Biror ishga yo'naltirilgan mablag'dan foyda ko'rish har doim ham bevosita bo'lavermaydi, boshqacha aytganda, bilvosita foyda ko'rish ham bor. Shu jumladan, yo'l qurilishida.

Masalan, Surxondaryo viloyatida xalqaro ahamiyatga ega M39 va M41 avtomagistralini qisqa masofada birlashtiruvchi 111 kilometr yo'lni rekonstruksiya qilish loyihasini olaylik. Ushbu loyiha vohadan Toshkent shahriga qatnovni amalga oshirayotgan xalqaro va mahalliy avtotashuvchilar uchun mavjud 298 kilometr avtomobil yo'lini 146 kilometr qisqartirishga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, haydovchi va yo'lovchi ushbu yo'ldan yurish orqali avvalgi 298 kilometr o'rniga 152 kilometr masofani bosib o'tadi.

Endi buning iqtisodiy jihatiga o'txalsak. Ushbu yo'ldan har daqiqada shartli ravishda 10 ta avtomobil qarama-qarshi



mangan viloyatida mavjud yo'llarda ham keng ko'lami qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilyapti.

Namanganda umumiy hisobda 14 ming 11 kilometr avtomobil yo'li mavjud, buning 3 ming 377 kilometrini umumiy foydalanuvdagi

avtomobil yo'llaridir. Shahar va qishloq aholi punktlari ko'chalari esa 10 ming 634 kilometrni tashkil etadi.

Albatta, bu yo'llarning barchasi ham ravon emas. Qolaversa, aksar yo'llar serqatnovligi bois, muntazam ta'miri talab etadi.

Viloyat miqyosida yo'l infratuzilmasini yaxshilash uchun 123 milliard so'mga 216,5 kilometr yo'lni asfaltlash rejalashtirilgan bo'lib, bugungacha 119,3 kilometr ichki yo'lda ta'mirlash to'liq yakunlandi.

ISLOHOTLAR SAMARASI



CHIQUINDIDAN

QUVUR ISHLAB CHIQUARILADI

Amudaryolik Azamat Mambetov oldin avtoulodda viloyatlarga yuk tashirdi. Tuman ko'chalarning plastmassa idish va qog'oz chiqindilarga to'lib yotganini ko'rib, unda yangi g'oya paydo bo'ldi. O'sha chiqindilarga ikkinchi hayot berish maqsadida kichik sanoat zonasida tadbirkorlik subyekti tashkil etib, aholidan plastmassa idishlar va qog'ozlar sotib o'la boshladi. O'z mablag'i hisobidan uskuna xarid qilib, mahsulotlarni presslab, qayta ishlash seklariga jo'natishni yo'lga qo'ydi.

— Yaqin kelajakda plastmassa idishlardan quvurlar ishlab chiqarishni reja qilganmiz, — deydi "Чистый мир" korxonasi rahbari Azamat Mambetov. — Ayni paytda 4 kishini doimiy ish bilan band qildim. So'nggi paytlarda ko'chalarda tashlab yuborilgan plastmassa idish va qog'ozlarni uchratmaymiz.

Sanoat va ishlab chiqarish sohasi o'sishi hududlar rivojiga, aholi daromadlari barqarorlashishiga, eng muhimi, ishsizlik kamayishiga asos bo'ladi. Tadbirkorlikka berilayotgan e'tibor sabab bugun tashkil etilayotgan korxonalar, ayniqsa, sanoat tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish, eksport sa-holiyatini o'stirish, ichki bozorni milliy korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash, mavjud resurslardan unumli foydalanish taqozo etilmoqda.

Prezidentimizning 2018-yil 6-martdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Amudaryo, Beruniy, Chimboy, Taxiotosh, Xo'jayli, Qo'ng'iro't, Mo'ynoq, Qonliko'l, Qorao'zak, Taxtako'pir, Shumanay, Ellikqal'a, Bo'zatov, Nukus, Kegeyli, To'rtko'l tumanlari va Nukus shahrida kichik sanoat zonalarini tashkil etilgan.

— Bugungi kunga kelib 31 ta kichik sanoat zonasiga 234,6 gektar yer maydoni ajratilgan. Kichik sanoat zonasida 807 ta lot mavjud bo'lib, ularning 309 tasi tad-

birkorlar xizmatida, qolgan 498 tasi elektron onlayn-auksionga chiqarish uchun Qurilish vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasiga berilgan, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona direksiyasi rahbari Baxtiyor Murotov. — Qoraqalpog'iston Respublikasi maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini ma'muriy kengashi tomonidan kichik sanoat zonalaridagi

125 ta loyiha uchun tadbirkorlik subyektlariga 382,9 milliard so'm ajratilgan. Ayni paytgacha loyihalarning 103 tasi amalga oshirilib, 22 tasi bo'yicha ishlab olib borilyapti. Eng muhimi, 2228 ta yangi ish o'rni yaratilgan.

Amudaryo tumani kichik sanoat zonasida 68 ta lot mavjud. Ularning 48 tasi tadbirkorlarga ajratib berilgan. 20 ta lot keyingi tanlovlarga qo'yilgan. Mazkur kichik sanoat zonasiga import o'rini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi 8 ta loyiha joylashtirilishi natijasida 189 fuqaro ishli bo'ldi.

— Biz, asosan, temir eshik, darvoza, har xil panjara va isitish qozonlari ishlab chiqaramiz. O'tgan yili 100 million so'm kredit hisobiga korxonani kengaytirdik. Temir buyumlar ishlab chiqaruvchi uskunalar xarid qildik, — deydi "Jumamurod usta" korxonasi rahbari Jasur Bobojonov. — Mahsulotlarimiz ichki bozordan ortmayapti.

Tadbirkorning kelajak rejaları bilan qiziqqanimizda, imkoniyati bo'lsa, 500 million so'm kredit olib, faoliyatini yanada kengaytirish niyati borligini aytdi. Shuningdek, o'zlar yasayotgan isitish qozonlari uchun sertifikat olish arafasida ekan.

— Men ushbu korxonada 2013-yildan buyon payvandchi bo'lib ishlayman. Oylik maoshim 5-6 million so'm atrofida, — deydi Xayrullo Do'smanov. — El uchun zarur buyumlar ishlab chiqarayotganimdan faxrlanam.

Amudaryo tumani kichik sanoat zonasida 13 sotix joyda mebel sexi ochgan Nurbek Xolboyev dastlab oila a'zolari bilan uyda jihaz yasardi. Bugungi kunda "Xolboyev Madrem" korxonasi ustalari tomonidan did bilan ishlangan divan, o'rindiq, stol-stul, bolalar karavoti singari mebellar uchun xaridorgir. Mebel ishlab chiqarish uchun zarur uskunalarini o'z mablag'i hisobidan xarid qilgan. Zamonaviy uslubda yasalgan mebellar ichki bozorda talabdir.

— Korxonamiz 2016-yildan buyon Amudaryo tumani kichik sanoat zonasidagi 47 sotix joyni nol xarid qiymatida olib, faoliyatini davom ettirib kelmoqda, — deydi "Al kofil biznes plast" korxonasi ish yurituvchisi Allabergan Emazarov. — Asosan, granuladan maishiy idishlar ishlab chiqarib, mah-

sulotlarimizni Xorazm, Samarqand, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahridagi mijozlarga yetkazib bermoqdamiz. Shu bilan birga, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga eksport ham qilyapmiz. Yillik sof daromadimiz 702 million so'm. Yaqin kunlarda mahsulot turini ko'paytirish uchun yangi uskunalar xarid qilamiz. Korxonada 10 kishi doimiy ish bilan band.

2023-yilning yanvar-iyul oylarida Qoraqalpog'iston kichik sanoat zonalarini hududida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 9,1 trillion so'mni tashkil etdi. Tahlil qilinayotgan davrda xalq iste'moli tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 2022-yildagiga nisbatan 11,4 foiz oshdi. Joriy yilning yanvar-iyul oylarida hududda 1,4 trillion so'mlik xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarildi.

2023-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar soni sezilarli darajada ko'paydi. 2022-yilda 2227 ta yangi kichik biznes subyekti tashkil etilgan bo'lsa, joriy davrda bu ko'rsatkich 65,8 foiz o'sdi.

Beruniy tumani Jayhun mahallasida joylashgan eski paxta tozalash zavodi hududidagi 7,2 gektar maydonda kichik sanoat zonasini tashkil qilingan edi. U 49 ta lotga ajratilib, 44 tasi 26 ta tadbirkorga

Kichik sanoat zonasidagi "Nukus agro siti" korxonasi tomonidan import o'rini bosuvchi polipropilen va polivinilxlorid quvurlar va vanna ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. "Super step" korxonasi esa asbest g'isht, lok-buyog va beton mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.



berildi va bugungi kunda qurilish ishlari olib borilmoqda.

Ayni paytda mazkur kichik sanoat zonasida 28 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Loyihalar ishga tushirilishi natijasida 390 ta ish o'rni ochilishi ko'zda tutilgan. Bu yerda plastmassa mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan "Jayhun omda shamoli" korxonasi loyihasiga 2 milliard so'm sarfladi. Bugungi kunda sexda ko'chat uchun oyiga 1 millionta maxsus idish tayyorlanmoqda.

— Ko'chat uchun idishlar tayyorlashdan asosiy maqsad issiqxonaga bilan shug'ullanayotgan yurtdoshlarimizning ishini yanada yengillashtirish, — deydi tadbirkor Jo'rabek Alimov. — Yaqin kunlarda buyurtma asosida Qoraqalpog'istonning barcha tumanlarida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqchimiz. Shuningdek, boshqa turdagi plastik idishlar tayyorlash ham rejamizda bor.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 22-apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, Navoiy ovul fuqarolar yig'ini hududida 6,5 gektarda "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasini" tashkil qilindi.

Hozir mavjud 80 ta lotning 9 tasi tadbirkorlar tomonidan auksion orqali yutib olingan hamda yoshlar va kichik sanoat zonalarini direksiyasi bilan shartnomalar tuzilmoqda.

Xo'jayli tumani kichik sanoat zonasidagi 45 ta lotdan 18 tasi tadbirkorlarga ajratib berilgan. 8,3 milliard so'mlik 7 ta loyiha amalga oshirish ishlari davom etmoqda. Hozirgacha 6 milliard 246 million so'mlik ish bajarildi. Hududga import o'rini bosuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi 2 ta loyiha joylashtirilishi natijasida 77 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Kichik sanoat zonasidagi "Nukus agro siti" korxonasi tomonidan import o'rini bosuvchi polipropilen va polivinilxlorid quvurlar va vanna ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. "Super step" korxonasi esa asbest g'isht, lok-buyog va beton mahsulotlar ishlab chiqarmoqda.

— Qo'ng'iro't tumani kichik sanoat zonasida 34 ta lotdan 21 tasi tadbirkorlarga ajratib berilgan. Qiymati 10,6 milliard so'mlik 7 ta loyiha ishga tushishi natijasida 60 kishi ishli bo'ladi, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona direksiyasi monitoring bo'limi boshlig'i Jenis Tolboev. — Eng olis hudud hisoblangan Mo'ynoq tumani kichik sanoat zonasida esa 44 ta lot mavjud bo'lib, ulardan 28 tasi tadbirkorlarga ajratib berilgan.

Bugun qoraqalpog'istonlik tadbirkorlarda imkoniyat ham, imtiyoz ham yetarli. Faqat va faqat oldinga intilish va yangi g'oyalarni ro'yobga chiqarish kerak, xolos.

Minajatdin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

NUQTAYI NAZAR

TA'LIM SIFATI VA IJRO INTIZOMI

IKKISINI BIRLASHTIRIB TURADIGAN JIHAT NIMADA?

To'lqin TESHABOYEV, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

OTMLarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi nazorati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarini qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash yoki "ijro.gov.uz" da ishlash bo'yicha malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bizningcha, mazkur taklif va mulohazalar oliy ta'limda ijro intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni va 2021-yil 31-maydagi "ijro.gov.uz" ijro in-

samarali foydalanish uchun Toshkent moliya institutida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash borasida muayyan ishlar qilinmoqda. Ijro intizomini o'rganib borish bilan institutning monitoring va ichki nazorat bo'limi shug'ullanyapti. Bo'lim tahliliy ma'lumotlarni institut rektoriga muntazam taqdim etib boradi. Bo'lim



tizimi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha yagona va uzluksiz texnologik zanjirni tashkil qilish uchun ko'plab imkoniyat yaratadi. Xususan, 2021-yil 1-maydan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlarida, mahalliy davlat hokimiyati organlarida ijro intizomini nazorat qilish faqat "ijro.gov.uz" tizimi orqali amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ijro intizomini ta'minlashning eskicha tartibi, ya'ni nazorat kartotekalari va hisobotlar shakllantirishning qog'oz shaklidan elektron shaklda yuritish tizimiga o'tildi. Mazkur imkoniyat va qulayliklardan

boshlig'i, bosh mutaxassis va inspektor lavozimidagi mutaxassislar orqali qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro etilishi holati o'rganib borilayotir.

Har oydagi kengash kun tartibining birinchi masalasi institutda ijro intizomi va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishga bag'ishlanib, rektor tomonidan institutda o'tgan oy bo'yicha qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning ijro holati tanqidiy tahlil etib boriladi. Shuningdek, "ijro.gov.uz" tizimi orqali Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda turli tashkilotlardan kelib tushgan xat, buyruq va farmoyishlar, diplomning haqiqiylikni tasdiqlab berish to'g'risidagi murojaatlar va boshqa asoslovchi hujjatlar aylanadi.



Institutda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlashda hujjatlarning "ijro.gov.uz" tizimida aylanish tartibi yo'lga qo'yilgan. Unga ko'ra, ijro maqsadida kelib tushgan hujjatlar va topshiriqlar institut devonxonasida ro'yxatga olinadi. So'ng rektorning mas'ul yordamchilari ijro uchun kelib tushgan topshiriq yoki qonunchilik hujjatlariga mas'ul xodim va bajarish muddatini belgilab, "ijro.gov.uz" tizimi orqali tegishli shaxslarga jo'natadi. O'z navbatida, mas'ullar "ijro.gov.uz" tizimi orqali kelib tushgan qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarni belgilangan tartibda bajaradi. Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarning o'z muddatida hamda sifatli bajarilganini monitoring va ichki nazorat bo'limi mutaxassislari tomonidan o'rganiladi. Asosli va o'z muddatida bajarilgan ijro hujjatlari yoki topshiriqlar nazorat ro'yxatidan chiqariladi.

Institutda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentabrdagi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni hamda davlatimiz rahbarining 2016-yil 28-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, 2021-yilning apreldan 2023-yilning 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yilgacha qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi nazorati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarini qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash yoki "ijro.gov.uz"da ishlash bo'yicha malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bizningcha, mazkur taklif va mulohazalar oliy ta'limda ijro intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

og'zaki shaklda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan diplom olish, o'qishni ko'chirish, to'lov-kontrakt haqida ma'lumot so'rash, moliyaviy masalalar, o'qishni ko'chirish kabilar bo'yicha murojaatlar kelib tushgan hamda ularga qonunchilik me'yorlariga muvofiq javob berilgan.

Institutda 2021-yil 1-apreldan mf.ijro.uz ijro intizomi idoralararo elektron tizimidan foydalanilgan bo'lsa, 2023-yil 1-maydan boshlab edo.ijro.uz tizimidan foydalanish yo'lga qo'yildi.

Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimida qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi tahlili natijalaridan qator taklif va xulosalar shakllantirish mumkin. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida belgilangan muddatda Adliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda "UNICON.UZ" fan-tadqiqot markazi bilan hamkorlikda "ijro.gov.uz" tizimi orqali qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha seminar-treninglar, davra suhbatlari va amaliy konferensiyalar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-oktabrdagi Davlat organlari va tashkilotlarining jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ish olib boruvchi xodimlari malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi nizomi amaliyotga joriy etilishiga qaramay, bugun oliy ta'lim muassasalarida murojaatlar bilan ishlovchi xodimlar malakasini oshirish darajasi sust. Bizningcha, oliy ta'lim tizimida murojaatlar bilan ishlovchi xodimlar malakasini oshirish bo'yicha ishlar natijadorligini kuchaytirish zarurati mavjud.

Hozir OTMLarda mazkur yo'nalishda faoliyat yurituvchi kadrlarning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rahbar xodimlar malakasini oshirish hamda davlat tilida ish yuritish hujjatlari bilan ishlash kurslarida malaka oshirish tizimi yo'lga qo'yilgan. Biroq aynan ijro intizomini ta'minlash masalasida malaka oshirish tizimi joriy etilmagan. Shu bois, OTMLarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi nazorati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarini qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini ta'minlash yoki "ijro.gov.uz"da ishlash bo'yicha malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bizningcha, mazkur taklif va mulohazalar oliy ta'limda ijro intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

XALQARO HAMKORLIK

O'ZBEKISTON – ERON: ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR SOHASIDAGI MANFAATLI SHERIKLIK

Dilshoda HOJIMURODOVA, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti xalqaro hamkorlik bo'limi boshlig'i, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Prezidentimizning 2023-yil iyun oyida Eron Islom Respublikasiga rasmiy tashrifi doirasida erishilgan kelishuvlarga binoan Toshkentda Eron innovatsiyalar va texnologiyalar uyi ochildi. Bu ikki davlat o'rtasida ilmiy asoslangan yangi texnologiyalarni O'zbekistonga olib kirish jarayonini osonlashtirish uchun ishlab chiqilgan xalqaro dasturning bir qismidir.



Shuningdek, kuni kecha Eron Islom Respublikasining ilm-fan, texnologiyalar va bilimga asoslangan iqtisodiyot bo'yicha vitse-prezidenti Ruhulloh Dehqoniy-Feruzobodiy boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizga tashrif buyurdi. "InnoWeek – 2023" xalqaro innovatsion g'oyalar haftaligi doirasida o'tkazilgan O'zbekiston – Eron ishlabarmonlari forumida esa eronlik tadbirkorlar, ilm-fan vakillari hamda 100 dan ziyod kompaniya a'zolari ishtirok etgan xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tadbirlardan bo'ldi.

Eron oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari Yaqin va O'rta Sharq mintaqasida yetakchi o'rinlarda birini egallab kelmoqda. Shu ma'noda, eronlik hamkorlar bilan tashrif doirasida muzokaralar ikki davlat o'rtasida ilm-fan sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Bu davlat oliy o'quv va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish, xususan, fors tili bo'yicha fan dasturlari, o'quv adabiyotlari yaratish, zamonaviy texnologiyalar asosida fors tilini o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, pedagoglar uchun o'quv seminarlari, malaka oshirish kurslari tashkil etish, ilmiy-tadqiqot markazlari bilan loyihalarni bajarish, tarjimonlik, tarixiy va adabiy manbaxunoslik, turizm kabi sohalarida kadrlar tayyorlash vazifasi turibdi.

Mamlakat ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal sur'atda rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichda islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zamonaviy talabalarga javob beradigan innovatsion ta'lim tizimini yaratishga katta e'tibor qaratilgan mamlakatning barqaror rivojiga xizmat qilmoqda. Diqqatga loyiq tashkilot shuki, Eron universitetlarining o'quv dasturlari dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari standartlariga moslashtirilgan. Shu bois, ular faoliyatini o'rganish va tajriba almashish foydadan xoli bo'lmaydi.

2005-yildan buyon Eron innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Aynan shu yili innovatsion milliy dastur qabul qilindi. Unga ko'ra, 2025-yilga qadar mamlakat aholisining 30 foizi innovatsion iqtisodiyot bilan band bo'lishi rejalashtirilgan. Eron davlat innovatsion agentligi tashkil etilgan. Hukumat 2025-yilga qadar yalpi ichki mahsulotning 4 foizini innovatsiyalarga yo'naltirishni rejalashtirgan. Eronning Innovatsion rivojlanish strategiyasiga muvofiq, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni yaratish maqsadida ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor berilyapti. Ushbu strategiya doirasida ilm-fandagi salohiyatni oshirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish va jahon ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv ko'zda tutilgan. Ta'lim sifatini muntazam oshirib borish davlat strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shu bois, oliy ta'lim sohasiga davlat katta miqdorda mablag' ajratadi. Eron texnopark imkoniyatlarini orqali xorijiy yetakchi oilmlar bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, shuningdek, ko'plab innovatsion ilmiy-texnologik rivojlanish markazlari tashkil etilgan. Ularda asosan, gaz sanoati, tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari sohalardagi ilmiy ishlanmalar amalga oshirilmoqda.

Yirik gaz-neft zaxiralardan tushadigan milliy daromad ham ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Bu esa, oliy ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqot faoliyatini hamda innovatsion siyosatni tobora rivojlantirib borishni taqozo etmoqda. Mamlakatda innovatsion startap loyihalarga moliyaviy va texnologik ko'mak berish tizimi yo'lga qo'yilgan. Yosh tadbirkorlar o'z loyihalarni amalga oshirish uchun zarur resurs va grantga ega bo'lishi mumkin. Shu tariqa oliy ta'lim va innovatsion rivojlanish sohasida muhim yutuqlarga erishayotgani barqaror taraqqiyotga xizmat qilmoqda.

Tehron va Isfahondagi texnoparklar eng yiriklari hisoblanadi. Bu sohadagi so'nggi ilmiy yutuqlar o'rganilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shuningdek, robototexnika va sun'iy intellekt sohasida tadqiqotlar olib borilyapti. Eron texnoparklarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha startap loyihalari qo'llab-quvvatlanmoqda. Raqamli ta'lim platformasini yaratish bo'yicha ilmiy loyihalar amalga oshirilib, ma'lumotlarni tahlil qilishning innovatsion usullari yaratilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijalari amaliyotga keng joriy etilishi asosida loyihalarni tijoriylashtirishga erishilmoqda.

Eron innovatsion salohiyatini oshirishga intilmoqda va bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan. Hukumat tomonidan ilmiy-tadqiqot institutlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash kuchaygan, ta'lim tizimida asosan, aniq fanlar, zamonaviy texnologiyalar, muhandislik ishi va matematika sohalariga e'tibor qaratilgan, maktablarda robototexnika va dasturlashga oid darslar joriy etilgan. Davlat ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari huzurida 60 dan ziyod texnopark tashkil etilgan. Oliy ta'limda texnoparklar tashkil etilib, talabalarining ilmiy loyihalari qo'llab-quvvatlanayotgani bois, ularda innovatsion startaplar shakllanmoqda. Iqtidorli talabalarga grantlar ajratilayotgani, xususiylar innovatsion rivojlanishga rag'batlantiruvchi imtiyozlar berilayotgani ham e'tiborga molik.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilari uchun internet va kompyuter texnologiyalarini o'zlashtirish dasturlari joriy qilingan. Hozir 7000 dan ortiq IT mutaxassisi tayyorlanmoqda, ular soni yil sayin ortib bormoqda. Tehronda Pardais texnopark mamlakatning IT sohasidagi eng yirik texnoparklaridan bo'lib, u yerda 500 dan ziyod kompaniya joylashgan. Bugungi kunda Sharif texnologiyalar universiteti Osiyoning IT sohasida faoliyat yurituvchi eng yaxshi texnika oliy ta'lim muassasalaridan biridir.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dunyo oliy ta'lim muassasalari xalqaro reytingida yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan Tehron universiteti va Alloma Tabatabaibiy universiteti bilan akademik almashuv va ilmiy tadqiqotlar sohasida yaqin hamkorlik qilmoqda. Ushbu hamkorlik doirasida 2023-yil iyun oyida universitetimizning bir guruh o'qituvchilari mazkur oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirib qaytdi.

O'zbekiston Eron tajribasidan foydalanib, mamlakatda innovatsion sohani rivojlantirishning amaliy yo'llarini ishlab chiqishga ko'mak berishi mumkin. Zero, mazkur yo'nalishlardagi yaqin hamkorlik ikki tomon uchun ham manfaatli bo'ladi.

HUDUDLAR HAYOTI

O'QUVCHILAR TAYYORLAGAN MAHSULOTLAR SAVDOGA CHIQRILDI

Malika jajji qizaloqligidan qo'lga igna olib, qo'g'irchoqlariga biror kiyim tikishni yaxshi ko'rardi. O'z bilganicha harakat qilib, xushbichim kichik liboslar tikar, mehnati mahsulidan zavq olardi. Uning bu intilishlarini kuzatgan oilasidagilar kelgusida chevar bo'lishini taxmin qilardi. Garchi tikkan kiyimlari unchalik o'xshamasada, uni rag'batlantirib, dalda berib qo'yardi.



— O'quvchilarning kasbga qiziqishi juda yuqori, — deydi maktabning texnologiya fani o'qituvchisi Gulnoza Isaxojayeva. — Hozir bizga ajratilgan matolardan oddiy usullarda tikiladigan buyumlar tayyorlab, sotishga chiqardik. Misol uchun, dasturxon tikib, buyurtma asosida xaridorga yetkazib beryapmiz. Bundan tushgan daromadga yana mato olib, mukammalroq dizaynda tikishga o'tyapmiz. O'z mahsuloti xaridorgirigini ko'rgan qizlarni hunarga yanada qiziqib bormoqda.

"Uydagi jihozlarni o'zimiz tuzatdim"

Maktabdagi chilangarlik va santexnika yo'nalishlari bo'yicha tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlariga, asosan, o'g'il bolalar qatnashadi. Hozir yuqori sinfning 20 nafardan ortiq o'quvchilari bu hunar sirlarini o'rganayapti. Rustam Majitov ustozligida haftada ikki marta tashkil etilayotgan o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etayotgan yoshlarning qiziqishi yuqori.

— Santexnika ustachiligiga qiziqardim, — deydi 10-sinf o'quvchisi Zafar Zo'irov. — Maktabimizda bu kasbga

o'rgatish boshlangach, birinchilar qatorida qatnasha boshladim. Ustaxonamizda santexnika ishlarini o'rganish uchun sharoit yetarli. O'rganganim hozirdanoq hayotda qo'l kelmoqda. Yaqinda yudag nozot santexnikani o'zim ta'mirladim. Uydagilarni ham xursand bo'ldi.

Texnologiya fani o'qituvchisining aytishicha, bu hunarni egallashni istovchi bolalar ko'pchilik.

Bilim maskani yangi qiyofada

10-maktab Qarshi shahri markazida joylashgan bo'lsa-da, shu paytga qadar anchagina e'tibordan chetda edi. Bilim maskanining o'quv binosi qurilganiga 60 yildan oshganligi sabab anchagina ta'mirlab ahvolga kelib qolgan, qishning yog'in-sochini kunlarida tomidan chakki o'tardi. Bugun esa holat umuman boshqacha. Shahardagi eng faol maktablar haqida so'z ketsa, birinchilar qatorida 10-maktab tilga olinadi. — O'tgan yili biz uchun juda katta yangilik bo'ldi, — deydi maktab direktori Elmira Hasanova. — Kattagina bunyodkorlik ishleri amalga oshirilib, ta'lim maskanimiz

butunlay yangi qiyofaga kirdi. Davlat dasturi asosida 11 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilib, 660 o'rinli o'quv binosi qurildi hamda mavjud inshootlarimiz mukammal ta'mirdan chiqarildi. O'quv va laboratoriya xonalarimiz, sport zalimiz to'liq yangidan jihozlandi. Xonalar yorug' va shinam holatga keltirildi. Shu paytga shahar maktabi deiyishga xijolat bo'ldik, biror kishi faoliyatimiz bilan tanishmoqchi bo'lsa, ichkariga olib kirishga tortinib turardik. O'quv qurollarimiz, sinf jihozlari ancha eskirib qolgandi. Bugun esa maqtasana arziri holatga keldi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi hamda 2023-yil 28-fevraldagi "2022-2026-yilgacha mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoirlari ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yil boshidan qo'shimcha bir milliard so'mdan ortiq mablag' ajratilib, o'quvchilar kasb-hunar egallashi uchun ustaxonalar qurildi. Natijada 11 turdagi yo'nalish bo'yicha o'quv mashg'ulot xonalari jihozlal bilan ta'minlandi. Hozir 10-sinf o'quvchilari xohishlariga qarab o'quv mashg'ulotlariga jalb etilgan. Jumladan, avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish, chilangarlik, santexnika, o'g'il bolalar sartaroshi, qizlar sartaroshi, tikuvchilik, biser to'qish, pazandalik, IT texnologiya kabi kasb-hunarlar o'rgatilmoqda.

Joriy o'quv yilidan kasb-hunarga yo'naltirish borasida Qarshi shahrida namuna sifatida tanlab olingan ushbu maktabda qilingan harakatlar besamar ketmayotganini yoshlarning qiziqish bilan hunar bo'layotganidan ham anglash mumkin. Demak, sinov jarayonlaridan yaxshi o'tgach, ushbu loyihalar boshqa maktablarda ham joriy etiladi.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

MA'NAVIYAT SARCHASHMASI

ILIQ SO'ZIMIZ VA MEHR-MUHABBATIMIZ BILAN XAYRIXOH BO'LAYLIK

Navoiy TILINING QUDRATI

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi minbarida o'zbekona g'urur bilan ikkinchi bor o'zbek tilida nutq so'zlashi bejiz emas. Tilimizning qadr-qimmatini jahon hamjamiyati oldida baland ko'tarib, o'z xalqi va vataniga bo'lgan beqiyos mehr-muhabbatining amaldagi yorqin ifodasi edi bu.

Nuriddin OCHILOV, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

Boshlanishi 1-betda

Bunday baxtiyorlik yurtdoshlarimiz chehralarida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganda va asriy orzumiz ushlab, mustaqilligimiz e'lon qilinganda butun ko'rk, go'zalligiyu jozibasi bilan namoyon bo'lgani kechagidek yodimda. O'shanda yurak-yurakdan qanchalar quvongan bo'lsak, davlatimiz rahbarining BMT minbaridan o'zbek tilida baralla so'zlaganini eshita turib, dilimizni yana o'shanday yoniq tuyg'ular chulg'adi. Axir ona tilimiz o'sha lahzalarning o'zidayoq ne-ne sahrolar, ne-ne tog'lar, ne-ne dengizlar-u okeanlar, ne-ne mamlakatlari usha qadim va buyuk millatimiz-u jonajon O'zbekistonimiz ovozi bo'lib olamara yangraydi-yu, quvonmaymizmi?!

Darvoqe, BMT minbaridan yangrangan tilimiz faqat biznigina sevintirdimi? Yo'q! Bu shod-u xurramligimizga dunyoning o'zbek tilida gaplashadigan elik millionga yaqin aholisigina emas, butun musulmon olami sherik bo'lib, muborakbod etganini zo'r mamnuviyat ila aytmasdan bo'lurmi? Yo'q! Mana sizga Alisher Navoiy bobomiz tilining qudrati, o'ziga millionlarni ohanarabodek tortishi, maftun etishi, o'zbekning o'zini, o'zligini bo'y-basti ila yorqin ko'rsatishi. Prezidentimiz nutqini BMT zalida o'tirgan kazo-kazo davlatlar rahbarlari diqqat bilan eshitib, olqishlaganligining ham shohidi bo'ldik. Bu hech bir shubhasizki, tashqi dunyoning O'zbekistonga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, o'zaro manfaatli do'stlik va hamkorlik ufqlarini yanada kengaytirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasi minbarida o'zbekona g'urur bilan ikkinchi bor o'zbek tilida nutq so'zlashi bejiz emas. Tilimizning qadr-qimmatini jahon hamjamiyati oldida baland ko'tarib, o'z xalqi va vataniga bo'lgan beqiyos mehr-muhabbatining amaldagi yorqin ifodasi edi bu.

Davlatlar rahbarlarining e'tiborini tortgan takliflardan biri Prezidentimizning sayyoramizni kelgusi avlodlarga qanday holda qoldiramiz degan fikri bo'ldi: "Mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlari bilan erishish mumkin. Bizga o'zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko'proq zarur". Haq gap. O'zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik chuqur ildiz otgan joyda tinchlik va taraqqiyot bo'ladi. Odamlar halol mehnat mevasidan bahramand bo'lib, ahil va baxtli hayot kechiradilar. Bu nutq qadimimizni ham, qadrimizni ham yanada baland qilish barobarida barchamizning zimmasiz o'zbek tilida tiniq va ravon so'zlash hamda yozishdek sharafli vazifani yuklaganini ham unutmasligimiz kerak! Hamisha va hamma joyda o'z ona tilimizda ravon gapirishni, uning nimalarga qodirligini namoyon etishda davlatimiz rahbaridan ibrat olish har birimizning burchimizga aylanmog'i lozim.

To'g'ri, har kim o'z tilida va shevada so'zlashga haqli. Bunga qonun moneilik qilmaydi. Lekin davlat idoralarida o'zbek tilida ish yuritish, ya'ni gapirish va yozish qonun talabi. Yodingizda bo'lsa, davlat tashkilotlarida ishlaydigan boshqa millat vakillarining o'zbek tilini o'rganishlari uchun muddat belgilangan edi. Afsuski, bu muddat allaqachon o'tib bo'ldi. Hech kim e'tibor bermagan uchunmi, davlat tashkilotlarining ayrimlarida davlat tili bir chetda qolib, yana avvalgiday ish yuritilmoqda. Davlat tilida gapirishni, yozishni bilmaydigan rahbar va mutaxassislariga bu uyat emasmi? Qator-qator vazirliklar, tashkilot va oliy o'quv yurtlarida o'zbek tilida ish yuritish bo'yicha tayinlangan mas'ullarning boshqa sohadan nomi-



gagina qo'yilgani yoki shunday lavozim tashkil etilib, unga o'zbek adabiy tilini yaxshi biladigan mutaxassis tayinlanmagani o'z ona tilimizga bo'lgan loqaydligimizdan dalolat bermaydimi?! Televideniye ko'rsatuvlari va radio eshittirishlarida shevada muloqot qilish odatga aylanganini kechirish mumkinmi? Bu kasallik kino va seriallarga ham o'tgani achinarli emasmi? Ikki o'zbek "yulduz" san'atkorining ona tilimizdagi teleko'rsatuvda ruscha gapirishi g'ashingizni keltirmaydimi, asabingizni buzmaydimi, nafsoniyatigizga tegmaydimi? Ko'cha-ko'yda xato yozilgan reklamalarni, katta-kichik korxonalaru do'konlarning xorijiy tilda yozilgan g'it



mantiqsiz nomlarini birma-bir aytishning foydasi bormikan? Internet saytlaridagi yoki bu voqeaga bildirilgan munosabatlarni o'qib, kuyishingni ham, kulishingni ham bilmaysan kishi. To'g'ri yozilgan jumlaning o'zi yo'q. Buning ustiga mantiqsiz. Bu chalasavodlikdan darak bermaydimi?! Yaxshiyamki, bu sharmandali holatni o'zbekdan boshqa birov o'qimaydi, o'qimasin ham!

Bir vaqtlar yurtimizda faoliyat ko'rsatgan Hindistonning O'zbekistondagi favqulodida va muxtor elchisi Dalip Mextaning rafiqasi ona tilimizga astoydil mehr qo'yib, uni yaxshigina o'rgangan, yozuvchi, shoir, olim va san'atkorlar bilan do'st tutinib, ularga bilan tez-tez uchrashib, o'zbek tilida o'qigan kitoblari haqida maroqli suhbatlar qurardi.

Afsuski, ba'zan to'rt qatorlik arizani eplab yoza olmagani yoshlarimizga duch kelganida o'sha hind ayoli yodingizga tushib, o'z ona tilini puxta va pishiq bilishni xayoliga ham keltirmayotgan yurtdoshlarimizdan ko'ngling og'rimay qolmaydi. BMT minbaridagi ma'ruzada ta'kidlanganidek: "Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va

innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rganishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib yetishsin".

Bu gaplar har bir oilaning, har bir otanoning, har bir ta'lim muassasasidagi rahbar va o'qituvchining doimiy diqqat-e'tiborida bo'lishi, faoliyatining mazmuniga aylanishi shartligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Chunki bu dolzarb masalaga ertani o'ylamasdan yuzaki qaroyotganimiz farzandlarimizning o'z fikrini o'zbek tilida ravon ifoda etolmasligi va yozolmasligida yaqqol ko'rinmoqda.

Yoshlarimizning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini, ayniqsa, badiiy adabiyot mutolaasiga mehr-muhabbatini oshirish borasida Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qaror, shuningdek, "Adiblar xiyoboni"ning tantanali ochilish marosimida bildirgan dasturiy fikrlari o'zbek tilini chuqur o'rganish va qonun ijrosini to'la ta'minlash haqidagi da'vat emasmi?! Bog'dagi buyuk mutafakkirlar, shoir, yozuvchi va olimlar hayoti va ijodini o'qib o'rganish va keng targ'ib qilish maqsadida hukumatimiz qarori asosida poytaxtdagi yigirma to'rtta oliy o'quv yurtiga ularning birligida birligida dasturiy fikrlari o'zbek tilini chuqur o'rganish va qonun ijrosini to'la ta'minlash haqidagi da'vat emasmi?! O'tgan uch yilda kim nima ish qildi? Qanday ibratli ishlarni amalga oshirdi? Oliy o'quv yurtlari talabalarining bu yerdagi haftalik tashriifi adabiyot bayramiga aylanib, ularning haqiqiy kitobxon va o'zbek tilining jonkuyari ekanliklarini namoyon



etyaptimi? Yoki u haftadan bu haftada yigirma-o'ttiz talabani "Adiblar xiyoboni" ga olib borib, (oliy o'quv yurtlarining hammasi emas) faxrlatilgan adib haykali oldida xo'jako'rsingga tadbir o'tkazib qaytish bilan maqsadga erishyapmizmi?!

Prezidentimiz topshiriqlarini va hukumat qarori ijrosini hayotga tatbiq etishga sidqidildan kirishmas ekanimiz, juda uzoq yo'l yurushimizga to'g'ri keladi. Xullas, o'z tilini sevmagan, uning qadriini bilmagan kishi o'zga tillarni sevmaydi va qadriini ham bilmaydi. Buyuk adib Abdulla Qahhor o'z ona tilini sevmaganida, so'z zargari degan nomga munosib ko'rilmaydi? Go'zal va betakror hikoyalari yozib, jahonning mashhur yozuvchilari qatoridan o'rin olarmidi?! "Ona tilimni sevmasam, so'zlariga mahliyo bo'lmasam, hayratlanmasam, menga shoirlik qayda edi!", degan sevimli shoirimiz Erkin Vohidov go'zal she'rlar, go'zal g'azallar bitarmidi?! Bu misollar ona tilimizning naqadar boyligini, naqadar go'zalligini, naqadar jozibali va qudratli ekanini anglatmaydimi? Anglatadi! Anglatibgina qolmay, har birimizni hamma joyda o'zbek ekanimiz bilan, o'zbek tilida benuqson gapirishga undashi bilan haqli ravishda faxrlanishiga ham chorlab turibdi.

O'quvchilik kezarimizda barcha fanlardan sinflararo mushoiralar bo'lardi. Mushoiraga tayyorlanish, boshqa sinflar bu borada nimalar qilayotganini zimdan kuzatish, ayniqsa, g'oliblik zavqi maktabga, sinfdoshlarimizga yanada yaqinlashtirardi bizni.

Hammadan ham ona tili va adabiyot fanlaridan bo'ladigan mushoiralarga jon-u dilimiz bilan qatnashardik. Devoriy gazetalar, insholar tanlovida g'olib bo'lish uchun bor kuchimizni ishga solardik. Ega, kesim, fe'l, umuman, so'z turkumlarini tavsiflovchi she'rlar yozib yodlardik. O'zlashtirishi past bo'lgan sinfdoshimiz ham mustaqil tarzda insho uchun loqaqal sodda reja tuzishni bilgan. A'lochilar-ku murakkab reja tuzib, daftarni to'latib insho yozardi. Shuning uchunmi, hozir ham insho deganda, avvalo,

deb o'yladim, — deya gap boshladi Orif Tolib. — Ana shundan so'ng o'zimizning turli lug'atlarimiz, turkiy tillar etimologik lug'atlari, qaradosh turkiy tillar lug'atlari, milliy ensiklopediya, vikipediya'dan keng foydalanib, kerakli ma'lumotlar, maqolalar joylay boshladim.

Qahramonimiz mavzularni tanlashda asosan, o'z tajribasidan kelib chiqadi. Chunki muammoning yechimiga qachonki unga duch kelganingizda, aniqrogi, amaliyotda ehtiyoj seziladi. Tabiiyki bir inson



ipga tizilgan marjondek tekis va go'zal husnixat keladi ko'z oldimizga. Afsuski, keyingi paytda daftar to'lib yozilayotgan insholar juda kam. Nari borsa, 2-3 qog'oz, hatto bir qog'oz insho yozadigan, reja tuzishni bilmaydiganlar talaygina. Eng achinarlisi, aksariyati og'zaki nutqda qanday gapirsa, yozuvda ham shuni aks ettiradi. Bularning bari tilni bilishga, savodxonlik darajasiga taqaladi.

Bugun ta'lim muassasalarimizda til bayramlarini katta tadodir bilan o'tkazaymiz, tilimiz asoschilari bo'lgan buyuk ajdodlarimiz bilan ko'krak kerib faxrlanaymiz-u, o'zimizning tilini bilish darajamizni oshirish haqida jiddiy o'ylamaymiz. Bir so'zni har xil ko'rinishda yozayotgan, hatto o'zimizcha qoida yaratib olayotgan holatlarimiz bor. Izohli lug'atlarni kamdan-kam odam erinmay varaqlab chiqadi, ensiklopediya borasida ham shunday. Ijtimoiy tarmoqlardagi imloviy xatolarni aylatmas ham bo'ladi, juda achinarli. Gapi-riylarib oddiy holda aylanib ketgan xatoliklarni har doim texnikaga bog'lab qo'yish ham to'g'ri emas. Hayriyatki, bu masalaga befarq bo'lmaganlar tarozining bir pallasini tutib turibdi.

Onlayn savdo qilinadigan bir telegram kanalida mijvo sotuvchiga qarata "sizdan hech narsa olmayman, juda xato yozarkan-siz" deb yozganini ko'rib, "qoyil-ey", dedim. Axir xato yozishning ijtimoiy tarmoqda hech qanday ahamiyati yo'q deyidigan qatlam shakllanib qolgan bir paytda bundan quvonmay bo'ladimi? Beixtiyor "barakalla", deging keladi.

Telegram ijtimoiy tarmog'i, Yoshlar ishlari agentligining maxsus loyihasida ma'lum ma'noda savodxonlik darajamizni oshirishga harakat qilayotgan jurnalist, muharrir Orif Tolibni ko'pchilik tanimas. Ayni paytda uning telegram kanalida yetti mingdan ziyod obunachisi bor. Taniqli telegram kanallari bilan qiyoslaganda bu unchalik katta emas, albatta. Biroq yetti mingdan ziyod obunachi o'z savod darajasini oshirishga intilib, kanalni tark etmayotgani quvonarli. Obunachilari sonining sun'iy tarzda oshirilmayotganini postlarga bildirilayotgan izohlardan ham bilish mumkin. Zero, ularda kanalidagi mavzularning g'oyat o'rinni tanlanayotgani aytilib, endilikda yana nimalarga e'tibor qaratish yuzasidan takliflar bildiriladi.

— Dastlab kanalga o'zimizning ijodiy ishlarimizga joylardim, shuning uchunmi, faollik sezilmagan. Keyin odamlarga foydali bo'lgan narsalarni berishim kerak, o'zim bilgan ma'lumotlarni boshqalarga ham ravo ko'rishim mutaxassis sifatida burchim,

duch kelgan muammolar boshqalarda ham uchraydi.

— 1995-yili tasdiqlangan o'zbek tili-ning asosiy imlo qoidalar yuzasidan ham ko'p savollar tug'ildi, — deydi Orif Tolib. — Zero, nashrdagi hal qilinishi kerak bo'lgan jihatlari ko'p. Aslida, imlo qoidalarini muntazam to'ldirilib, yuzaga kelayotgan yangi muammolarni yechib borishi kerak. Bu haqida tilshunos olimlarimiz, soha mutasaddilari orasida an'adan buyon gap boradi. Imlo qoidalarini takomillashtirishda ham shunchaki emas, ayni paytda mavjud xilma-xilliklarga yechim beradigan qoidalar kiritilishi kerak. Masalan, men mavjud qonun-qoidalariga tayangan holda, ularni qiyoslash orqali bir qarorga kelaman. Chalkashliklar juda ko'p. O'ylanib qolasiz. Ayniqsa, o'zlashma so'zlar imlo bo'yicha umuman tartib yo'q. Masalan, mashhur xorij brendlari nomlarini qanday yozish kerakligi yuzasidan aniq to'xtama kelinmayapti. Agar taniqli brendlar o'z tillarida aks etadigan bo'lsa, bizda yo'q harflar qanday yoziladi? Shu kabi masalalarni hal qilib ketish kerak-da isloh ishlarida.

Xorijiy yozuvlar, umuman xorijiy tillar haqida gap ketganida, aytish kerakki, bugun yoshlarimiz chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganishga e'tibor qilayotganchalik ona tilimizga ham mehr qo'ysa, vaziyat butunlay boshqacha bo'ladi. Ingliz tilida esse yozish ko'p narsani hal qiladi. Agar talabgor esse qonun-qoidalariga amal qilmasa, imtihondan o'ta olmaydi. Esseda nafaqat imloga, muammoli masalaga qanday yechim taklif qilishingiz, u haqdagi tasavvuringiz, shaxsiy munosabatigizga ham qaraladi. Mana shu talablarga javob berish uchun o'z ustida zo'r berib ishlayshyapti-ku yoshlarimiz.

O'zbek tilida ham to'g'ri yozish, fikrni to'g'ri ifodalash, tizimli fikrlashga ehtiyoj bo'lishi kerak. Afsuski, buning u qadar ahamiyati bo'lmayapti. Xo'sh, nega yoshlar bizga umuman begona, boshqa o'zlar bilan bo'lgan tilni o'rganishga mas'uliyat bilan yondashyapti? Bu avvalo, shaxsiy ehtiyoj bilan bog'liq. Agar ingliz tilini bilish sertifikatiga ega bo'lsa, mamlakatimizda ham, chet elda ham qator imtiyozlarga ega bo'ladi. Ona tilini yaxshi bilish, fikrni og'zaki va yozma ravon ifodalay olishning ham loqaqal oliy ta'limga kirishga jiddiy ta'siri bo'lganida shunga ko'ra, harakat bo'lar edi va bu bilan umumiy darajadagi savodxonlikka katta bir qadam tashlash mumkin. O'zbek tili ilm tiliga aylanishi uchun talabalar, ilm ahli o'z sohasidagi yetarli ma'lumotni o'zbek tilida olishi



zarur. Demak, turli ilm va fan sohalariga oid kitoblar o'zbek tiliga sifatlari tarjima qilinishi yoki o'zbekchada yozilishi kerak. Bu bo'yicha keng ko'lami, tizimli ishlar olib borilmas ekan, kutilgan natijaga erishish amrimahol.

Ma'lumki, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlarga chet tillarni o'rgatish maqsadida "Ibrat farzandlari" loyihasi yo'lga qo'yildi. Orif Tolib bu loyihaga taklif qilinmasidan avval o'zbek tili yo'nalishida shunday bir loyiha tashkil etishni reja qilgan aslida. Maqsad — yoshlarning savodxonlik darajasini oshirishga hissa qo'shish edi. Savodxonlik darslari uchun 60 ga yaqin mavzuni uning o'zi belgilab olgan. Birinchi mavbatda, imlo qoidalarida mavjud bo'lgan, odamlar ko'p adashadigan, ko'p qiyaladigan jihatlarni aniqlab oldi. Imlo qoidalarida bor, lekin ko'pchilik bilmaydigan yoki foydalanishda chalkashliklarga duch keladigan ayni jihatlarga oydinlik kiritish bilan u ko'plarning dilidagini topa boshladi. Qolaversa, endilikda yo'qchilarning o'zlarini savollar yo'llaydi. Savodxonlik darslarini chet eldan turib o'rganib, minnatdorlik bildirayotganlar ham anchagina.

Orif Tolib faoliyatidagi yana bir jihatni alohida ta'kidlash joizki, uning saboqlari, joylayotgan maqolalaridan shevalar ham keng o'rin egallaydi. Uning o'zi aytib o'tganidek, shevalar tilni boyitadigan manbalardan biri. Bu borada muharrir yana shularni qo'shimcha qildi.

— Shevalardan foydalanish kerak albatta, lekin me'yordan oshmaganda holda. Ayrimlar asarlarida shevalarni qo'llash orqali tilni boyitaman deb o'ylaydi, lekin yozganida chalkashlik bo'lmas qoladi. Shu ma'noda me'yor kerak. 2-3 tadan sheva so'z kiritilib, omalashib, shu tilga singisa ham katta gap aslida. Adabiy tilda yo'q bo'lgan ko'p tushunchalarga o't qo'yish mumkin. Masalan, so'ngi yillarda tilimizning to'riga chiqib, chordona qurib olgan bodikamera, heshteg, shtandart, tyutor, vaktsinatsiya, frilanser, chellenj, fleshmob, startap, interfeys, kouch, inflyuenser, imij, messenjer, keshbek singari so'zlarni bemaol o'zbekchallashtirishimiz mumkin edi. Buning o'rniga chet so'zlar, atamalar tilimizga paydar-pay, xohlagan shakli va holdida kirib kelyapti va qumga singgandek singib ketyapti. Masalaning yana bir tomoni bor: bu harakatni jamiyat qanday qabul qiladi? O'z so'zimiz o'zimizda kinoya yoki mazah hissini uyg'otmaydimi, o'zbekchallashtirgan atamani ong va qalbmiz qabul qila oladimi?

Ko'plab nodir, sof o'zbekcha so'zlar shevalarda yotibdi. Masalan, "obkash" so'zini olaylik. Forschada "ob" — suv, "kash" tortmoq, ya'ni suv ko'tarish degan ma'noni bildiradi. Bir obunachimizning yozishicha, ayni so'z Xorazm shevasida bor ekan. Aslida, o'zbek tilida bu so'z "inog'och" deyilarkan. "Iyin" — yelka, "og'och" — yog'och. Yelkaga tashlangan yog'och. Qararg, juda chiroyli, sof o'zbekcha so'z. Afsuski, bu adabiy tilga kirmagan. Shunga o'xshagan so'zlarimiz juda ko'p. Ularni omalashtirish kerak. Harakat qilsak, tilimizni yanada boyitish uchun imkonli bor.

Bugun millat ori, g'ururi uchun har qachongidan kuchliroq kurashadigan payt keldi. Tilimiz himoyasi uchun qurollangan, bu borada bo'lishi mumkin xurujlarga tayyor turganlarga ergashaylik. Loqaqal iliq so'zimiz, mehru muhabbatimiz bilan ularga xayrixoh ekanimizni bildirib turaylik!

Munojat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DUK MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046. 43312 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy